



# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASI



74.100,5  
sh. 26

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

G. M. SHARIPOVA, SHA. YAKUBOVA

MAKTABGACHA  
TA'LIM MUASSASALARIDA  
MUSIQA O'QITISH METODIKASI

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi*  
Toshkent— 2009

**Taqrizchilar:**

- D. Karimova – Nizomiy nomidagi TDPU  
«Vokal va musiqa o'qitish metodikasi» kafedrasi dotsenti,  
D. Azimova – Yunus Rajabiy nomidagi pedagogika kolleji o'qituvchisi

74.100.5  
Sh26

Sharipova G.M.

Maktabgacha ta'lrim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'lli. /G.M.Sharipova, Sh.A. Yakubova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. –T.: Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 – 96 b.  
I. Yakubova Sh.A.

O'quv qo'llanmada berilgan metodik tavsiyalar va musiqiy material maktabgacha ta'lrim muassasalari – bolalar bog'chalarida bo'lajak musiqa rahbarlarining zamon talablarini asosida musiqiy mashg'ulotlarni olib borishiga qaratilgan. Qo'llanma o'quvchilarni ilmiy, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar majmuasi bilan tanishtirib, ularda uslubiy ko'nikma hamda malakalarni tarkib toptirishda yaqindan yordam beradi.

BBK 74.100.5ya722

Sh 4305000000-112  
360(04)-2009

ISBN 978-9943-05-121-8

© Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. y.

**KIRISH**


O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da maktabgacha ta'lim davlatimizning uzluksiz ta'lim tizimida ilk pog'ona ekanligi ko'rsatib berilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma davlat ta'lim standartlari dasturida ko'rsatilgan me'yor va talablar asosida yaratildi. Bolalarni milliy qadriyatlар, xalq musiqa ijodi namunalari misolida tarbiyalash, ularda zaruriy bilim va ko'nikmalarini tarkib toptirish maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalarida turli shakldagi musiqa mashg'ulotlari, nafosat soatları, o'yin-kulgi, bayram tadbirlarini o'tkazish usullari, yo'l-yo'riqlari, ularga qo'yiladigan talablar atroflichcha yoritilgan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko'zda tutiladi. MTM larda olib boriladigan barcha musiqiy-tarbiyaviy ishlari bolalarda bog'cha yoshidan boshlab olijanob fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog'chalarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlari yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol inson bo'lib voyaga yetishishiga xizmat qiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida kichkintoylar hayotiy vogelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Ular yoshiga mos musiqiy asarlar tarbiyanuvchilarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Bolalar bog'chasiда amalga oshiriladigan mehnat, hisob, atrofimizdagи olam kabi konkret mashg'ulotlarda bolalarning abstrakt fikrlash, mantiqiy xotira kuchi kabi qobiliyatlari o'sib borsa, musiqa mashg'ulotlarda obrazli fikrashi, nutq madaniyati, musiqiy uquvi, go'zallikni his eta olish qobiliyati rivojlanib boradi. Turli uslublardan foydalaniб o'tkaziladigan har bir musiqiy mashg'ulot kichkintoylarda badiiy nafosat zavqini uyg'otadi, musiqaga qiziqishini o'stiradi.

Musiqa mashg'ulotlari ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish bugungi kun bo'lajak musiqa rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu vazifalarni musiqa mashg'ulotlarini o'tishga doir metodik tavsiyalar, mashg'ulotlarning reja namunalari, bog'chalarda o'tkaziladigan ertaliklar, bayramlar, tadbirlar ssenariyaları batafsil yoritilgan ushbu o'quv qo'llanmadan unumli foydalangan holda amalga oshirish mumkin, deb o'ylaymiz.



bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshiriladi. Turli metodlardan foydalaniib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'uloti kichkintoylarda badiiy-estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini shakllantiradi, ijodiy fikrlash qobiliyati va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari musiqiy o'yinlar va raqsler bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini shakllantirib, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Bu bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy ta'limi, tarbiyaviy ishlar yosh avlodda olijanob fazilatlarni bog'cha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA TA'LIMI VA TARBIYASINING MAQSAD HAMDA VAZIFALARI

Maktabgacha ta'lif muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining **asosiy maqsadi** bog'cha yoshidan boshlab bolalarning dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didini o'stirib, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unda hayot o'z aksini topishini anglatishdir. Shuni qayd etish lozimki, musiqa mashg'ulotlari oldiga qo'yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o'stirib borish lozim. Kichkintoylarning musiqiy uquv va qibiliyatlarini quyidagi faoliyatlardan iborat:

- musiqiy uquvi (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyati);
- tembr uquvi (musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilish);
- ritm tuyg'usi (musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab, his etish va ifodalash).

Bolalarning musiqiy qobiliyatlarini musiqiy mashg'ulotlarning barcha elementlarini amalga oshirish jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi.

Bolalar bog'chalarida olib boriladigan musiqa ta'lif-tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kichkintoylarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;
- musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsiyonal his-tuyg'ularni hosil qilish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;
- bolalarni musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatları yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;
- bolalar ovozini asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish va odatlantirish;
- musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badiiy fikr yuritishni rivojlanitirish;

- musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs shaklida ifoda etishga o'rgatish;

- musiqi mashg'ulotlariida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg'u sozlarimiz jo'rligida milliy musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish;

- musiqi mashg'ulotlari mazmunini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan tadbirda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtirot etish. Turli ertaliklar, konsertlar tashkil etish.

Musiqa mashg'ulotlariida bola hayotni, tevarak-atrofnı musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bog'chada musiqiy tarbiya ishlari badiiy adabiyot va tasviriy san'at

## MUSIQA RAHBARI VA UNGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

✓ Musiqa o'z tabiatiga ko'ra insonlar hayotini, ularning turli voqealarga nisbatan munosabati va ichki kechinmalarini xilma-xil tovush bo'yoglari orqali badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. Musiqa bolalar hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish bilan birga ularni nafosat olamiga olib kiradi.

Buning uchun musiqa rahbari, avvalo, bolalarni sevishi, bolalar fiziologiyasi, adabiyot, ona tili fanlari hamda o'z kasbiga oid musiqa o'qitish metodikasi, fortepiano, vokal darsligi, musiqa nazariyasi, solfedjio, ritmika, dirijyorlik kabi fanlarni puxta bilishi lozim.

Musiqa rahbarining bog'cha hayotidagi o'mni beqiyosdir. U o'z kasbiga mehr qo'yan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega inson bo'lmog'i lozim.

✓ Bolaning uch yoshidan yetti yoshgacha bo'lgan davrini maktabgacha davri deb hisoblaymiz. Tajribalardan ma'lumki, bolalarda ushbu davrda paydo bo'ladigan taassurotlar izi umrbod saqlanib qoladi. Bu bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o'sish va dunyonи bilish, atrof-muhitga o'z munosabatini bildirish istagi kuchayib boradigan davrdir. Shu sababli tarbiyachi va ota-onalar bolalarni har tomonlama yetuk bo'lib o'sishlariga jiddiy e'tibor berishlari kerak.

✓ Musiqa rahbari tomonidan yaxshi tashkil etilgan musiqliy tarbiya bolalarni barkamol inson bo'lib yetishishlariga ijobji ta'sir etadi. Bu ishda bolalar bog'chasi pedagogik jamoasingin ishtiroi va faolligi juda muhimdir. *Musiqa mashg'ulotlarini gigiyenik talablarga javob beradigan* darajada olib borish musiqa rahbarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

✓ Bayram ertalıklari bolalarni badiiy tarbiyalash shakllaridan biridir. Musiqa rahbari bu ishga ijobji yondashib to'g'ri tashkil qilgan bayram va bayram shaklidagi tadbirdilar (o'yin-kulgi soatlari, konsertlar, sayollar, sport bayramlari, nafosat soatlari, ko'ngilochar o'yinlar, bayram ertalıklari) bolalarni kichik yoshidan boshlab ma'naviy ozuqa olishga, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Musiqa rahbari zamon bilan hamnafas qadam tashlashi lozim. U zamonaviy texnik vositalardan foydalana olishi, ko'rgazmali qurollar tayyorlashi bilan birga DTS dasturiga muvofiq milliy musiqamiz, qadriyatlarimiz, cholg'u sozlarimiz tarixi, mumtoz kuylarimiz, o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari — terma, lapar, yalla, alla singari asarlarini mukammal o'rganib, kichkintoylarning yoshidan kelib chiqqan holda tushuntiradigan, qiziqitira oladigan, olijanob, mehnatkash inson bo'lishi etib, zamon bilan hamnafas qadam tashlamog'i ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## BOLALAR BOG'CHALARIDA MUSIQA MASHG'ULOTLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TUZILISHI

✓ Bolalar bog'chalarida musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, kichkintoylar qalbida nafosatga mehr uyg'otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda milliy musiqa ohanglari yordamida zaruriy bilim va ko'nikmalar tarkib toptiriladi. Bu mashg'ulotlardagi har bir faoliyat turi bolalarning musiqliy didini rivojlantiradi. Musiqliy mashg'ulotlar oldiga qo'yilgan har qanday maqsad va vazifalarni amalga oshirish, avvalo, musiqa rahbarining pedagogik tayyorgarligiga bog'liq.

Musiqliy mashg'ulotlar bog'chada o'tiladigan boshqa mashg'ulotlardan ancha farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

✓ musiqa mashg'ulotlari musiqa savodi va ijrochilikka doir bir necha faoliyat turlaridan (qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqliy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqa savodi, bolalar musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish) tashkil topadi;

✓ bu mashg'ulotlar boshqa mashg'ulotlardan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «tili» bilan farq qiladi. Tasviriy san'at ranglar bilan, adabiyot so'z bilan, musiqa esa tovushlar orqali vujudga keladigan ohanglar vositasida insonga ta'sir etadi;

— musiqa mashg'ulotlari bolalarning ruhiyatiga, emotsiyasiga faol ta'sir ko'rsatib, ularni quvontiradi, ijodiy kechinmalar hosil qilib, ma'naviy ozuqa beradi;

— musiqa mashg'ulotlari jismoniy tarbiya, rasm, odobnomha, atrofimizdagi olam kabi mashg'ulotlar bilan chambarchas bog'liqidir.

✓ Musiqliy mashg'ulotlarni olib borishda musiqa rahbari kichkintoylarning yoshi va qiziqishlarini e'tiborga olishi lozim. Mashg'ulotning tuzilishi o'quv materiallarning mazmunidan kelib chiqishi kerak. Bunda asarlarning ta'limi, tarbiyaviy ahamiyati, badiiy savyasi, bolalar yoshiga mosligining hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa mashg'ulotlарining tuzilishi quyidagi faoliyat turlaridan iborat:

1. Musiqliy-ritmik harakatlarni bajarish.

2. Musiqa tinglash.

3. Musiqa savodi.

4. Qo'shiq kuylash.

5. Bolalar musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish.

Endi har bir faoliyat turiga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

— musiqliy-ritmik harakatlar. Milliy ruhni o'zida aks ettingan xalq qo'shiqlari, laparlari bolalarning olamni badiiy his etishlariga, zavqlanishlariga yordam beradi. Musiqliy obrazlarga muvofiq turli xarakterdagi harakat va raqlarini, turli obrazlarni tasvirlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ritmik harakatlar musiqliy qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishda juda muhimdir. Musiqliy-ritmik harakatlar bolalar ruhiyatiga musiqliy asarning mazmuni va kaiyiyatini singdiradi, bu bolalarning jismonan sog'lom bo'lishlariga ham ijobji ta'sir ko'rsatadi;

musiqa tinglash – har bir bolaning musiqa tinglash madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bola, avvalo, musiqani idrok etib, so'ngra unga mos harakatlarni bajaradi;

– musiqa savodi. Musiqa mashg'ulotlarida bolalar qo'shiq kuylash, musiqa tinglash bilan birga qo'shiqlar, musiqiy asarlarning tuzilishi, tempi, xarakteri, ladi, kuyi, ritmi, tovush balandligini ham ongli ravishda anglashlari lozim. Bu ularning aqliy salohiyati, musiqiy uquvi, xotirasi, nutqi, ongi va bilimini oshiradi;

– qo'shiq kuylash. Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarning nutqi, musiqiy uquvi, musiqiy qobiliyati, xotirasi rivojlanadi. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash bolalarni do'stlikka chorlaydi, ularning o'zaro hurmat, tabiatga va Ona-Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularini tarbiyalaydi;

– bolalar musiqiy cholg'u asboblari jo'r bo'lish – musiqa mashg'ulotiarida eng qiziqarli, barcha bolalar sevib qatnashadigan faoliyat turidir. Bolalar musiqa cholg'u asboblari orqali jonli ijobi har qanday bolani o'ziga jalg etadi. Ularning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi, ritm tuyg'usi, musiqiy uquvi, xotirasini mustahkamlaydi. Kichikintoylarda ajablanish, zavqlanish, hayratlanish, quvonish kabi ruhiy holatlarni vujudga keltiradi.

Musiqa mashg'ulotlarining tarbiyaviy vazifa va maqsadlari	Musiqa mashg'ulotlarining ta'limiy vazifa va maqsadlari
Bolalarda harakat tuyg'unligini oshirish, ritmga mos qadam tashlash, yengil yugurish, oyoq to'pillatish va qo'llar bilan mashqlar bajarishga o'rgatish.	Bolalarning musiqiy-ritmik ko'nikmalarini rivojlantirish.
Asarni mazmuniiga ko'ra qismrlarga ajrata olish hamda harakatda ifodalash malakalarini oshirish.	Musiqa ohangini his etish va musiqa tinglash madaniyatini shakllantirish.
Quvnoq vs. g'amrigi musiqa ohanglarini farqlashga, ketma-ket tovushlarni kuylashga o'rgatish.	Bolalarda musiqani his etish, kuylash va tinglash qobiliyatlarni rivojlantirish.
Davr bilan humohang, fasliga mos qo'shiqlarni kuylashga o'rgatish.	Musiqa jo'rligida ovozning sof va jarungdorligini rivojlantirish.
O'zbek xalq raqs elementlarini musiqa jo'rligida o'rgatish va ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash.	Raqs san'atiga bo'lgan qiziqishni oshirish.
Bolalarni milliy cholg'u asboblari bilan tanishtirish. Zarbli va torli asboblarda ijroga o'rgatish.	O'zbek milliy cholg'ulariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.
O'yin davomida harakat ijodkorligini oshirish.	Bolalar faoliigi hamda jamoaviyligini oshirish.

Musiqa mashg'ulotlari  
kichik guruhda – 15–20;  
o'rta guruhda – 20–25;  
katta guruhda – 25–30;  
tayyorlov guruhida – 30–35  
daqiqqa davomida olib boriladi.

Bu mashg'ulotlar o'quv mazmunidan kelib chiqib, dastur asosida tuzilishi lozim. Bunda musiqiy asarlarning badiiy mazmuni, bolalar yoshiga mosligi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniyligini hisobga olinadi.

## BOLALAR BOG'CHALARIDA QO'SHIQ KUYLASHNI O'RGATISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Qo'shiq kuylash musiqa mashg'ulotining asosini tashkil etadi. Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutib tanlanadi. Qo'shiqlarni ma'lum bir tizimga solishda oddiydan murakkabga qarab borishga rioya qilish kerak.

Qo'shiqlarni quyidagi talablarga muvofiq tanlash tavsisi etiladi:

- tarbiyaviy ahamiyati, g'oyavli mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakteri;
- qo'shiq matnnini yod olish osonligi, badiiy yuksakligi va bolalarning lug'at boyligiga mosligi;
- ohangning xarakteri, intonatsiya ifodasi, kuyning o'chovni, tessitura va diapazonining bolalar ovoziga mosligi;

- qo'shiqning musiqa cholg'u asboblari (fortepiano) jo'rligi uchun klaviri; badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar yoshiga mosligi;
- qo'shiqning shakli, necha kuplet, qismidan iboratligi (bir, ikki qismli yoki ko'plik shaklida tuzilganligi), naqarotning mavjudligi.

Yalla, lapar, alla kabi o'zbek xalq qo'shiqlari, shuningdek, terma qo'shiqlar milliy musiqiy-ritmik harakatlari bilan o'rgatiladi. Musiqa rahbari qo'shiqlarni bolalarga yoqimli ovozda ifodalni aytib berib tanishtiradi. Mazmunini obrazli, qiziqarli tarzda bolalar ongiga yetkazishga harakat qiladi. Bunda u ko'rgazmali qurollar, musiqiy-ritmik harakatlardan foydalanadi. Qo'shiq mazmuni va xarakterini bolalar yaxshi anglab olganlaridan so'ng o'rgatishga kirishadi. Bolalar tolib qolmasliklari uchun qo'shiq o'rgatish uslubi vaqtiga mosligi bilan o'zgartirib turiladi.

Bolalar qo'shiqni stulchalarga suyanib o'tirgan holda kuylaydilar. Bu paytda ular qomatlarini to'g'ri tutishlari lozim. Stulchalar bolalarning bo'yalariga mos bo'lishi kerak, ya'ni suyanadigan qismiga yengil tayyanib turish mumkin bo'lsin. Qo'shiq kuylanayotganda qo'llar tizzaga qo'yilgan bo'lishi shart. Qo'shiq mazmuniiga mos musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish bolalarning ko'krak qafasi va nafas yo'llarini yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

Qo'shiq kuylash yengil va oson amalga oshirilishi tufayli bolalar diqqatini tez jalg etadi. Musiqa ijrochiligidagi ovoz eng qulay vositadir. chunki qo'shiq kuylashni turli sharoitlarda tez va oson tashkil etish mumkin. Musiqiy tarbiya ishi to'g'ri yo'lga qo'yilgandan so'ng bolalarga ularning yoshi va ovoziga mos qo'shiqlarni kuylatish natijasida tarbiyalanuvchilarning ovoz apparati yaxshi rivojlanadi. Qo'shiq repertuarini tanlashda bolalarning quyidagi ovoz diapazoni qoidalariga rioya etish tavsisi etiladi:

- ikki-uch yoshli guruhlarda ovoz diapazoni mi'-lya';
- uch-to'rt yoshli guruhlarda ovoz diapazoni re'-lya';
- to'rt-besh yoshli guruhlarda ovoz diapazoni re'-si'.

- besh-olti yoshli guruhlarda ovoz diapazoni re<sup>1</sup>-do<sup>1</sup>;
- olti-yetti yoshli guruhlarda ovoz diapazoni re<sup>1</sup>-re<sup>2</sup>.

Barcha guruh bolalari uchun (fa<sup>1</sup>-si<sup>1</sup>) yengil primar registr hisoblanadi. Shuning uchun kichik diapazonli qo'shiqlar, turli vokal-xor mashqlarini ko'pincha mazkur registrda kuylatish maqsadga muvofiqdir. Bu bolalarda musiqiy qobiliyatning har tomonlama rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq kuylash jarayonida bolaning fikrlash qobiliyati, nutqi, idroki o'sadi. Bolalar ovozini asrab tarbiyalashning zarur shartlaridan biri qo'shiqlarni ularning yoshiga va ovoz diapazoniga qat'iy rioya etib tanlashdan iboratdir.



### JAJJIGINA QUSHCHA

**Andante, legiero**

*D.Omonullayeva musiqasi,  
Po'lat Mo'min she'ri*

### DILOROMNING QO'SHIG'I

*D.Omonullayeva musiqasi,  
Ibrahim Donish she'ri*

**Chaqqos**

Quv-noq xush o - voz, Jaj-ji Di-lo - rom.

Qo'shi - g'i dil - ga Baxsh e-tar o - rom. A-yam va da - dam

Bo'l - sin - lar bar - dam. Dun - yo tur - gun - cha

Tur - sin - lar har - dam

Bog'chamizda u, barchaga yoqgan,  
Yosh qalbi jo'shib, daryodek oqgan.

## ETIKCHAM

Allegretto moderato

*D. Omonullayeva musiqasi,  
Qambar Ota she'ri*

The musical score consists of two staves of music. The top staff uses treble clef and the bottom staff uses bass clef. The key signature is B-flat major. The tempo is Allegretto moderato. The lyrics are written in Russian and Uzbek. The lyrics include:

Qish-kel-gan-da  
da-dil, bar-dam gur-sil-la-tib ki-yay - har-dum e - tik - cham, e - tik - cham  
Loy-ni bos-sam bil - chil - lay-di qor-da yur-sam  
g'ir-chil-lay-di e - tik - cham e - tik - cham

E'zozlab zo'r xizmatingni,  
Qilay chindan izzatingni,  
Etikcham, etikcham,  
Qish chiqqanda moylab qo'yay,

So'ng bir chetga joylab qo'yay,  
Etikcham, etikcham,

## JO'JALAR

Moderato, non troppo

*D. Omonullayeva musiqasi,  
Po'lat Mo'min she'ri*

The musical score consists of two staves of music. The top staff uses treble clef and the bottom staff uses bass clef. The key signature is B-flat major. The tempo is Moderato, non troppo. The lyrics are written in Russian and Uzbek. The lyrics include:

Jo' - ja - lar ju - da qi - ziq,  
o - yoq - la - ri qil - ti - riq. Chi - qi - shib - di  
tu - xum - dan op - poq kich - ki - na xum - dan.

Da capo

«Chip-chip» deya so'zlashar,  
Oyisini izlashar.  
Tovuq so'zin uqishdi,  
Yerdan uvoq cho'qishdi.

## BOG'CHA OPAM

Allegro

*M. Ikromova  
she'ri va musiqasi*

Bog'-cha o-pam, bog'-cha o-pam ya-go - na - yu ya-go-na.  
Bog'-cha o-pam, bog'-cha o-pam bir do - na - yu bir do-na. Ham - ma- dan ham  
Ham - ma- dan ham  
a - ql - li Ham - ma-dan ham chi-roy - li. Ham - ma-dan ham o - dob - li.

(8)

## CHILDIRMA

*D. Omonullayeva musiqasi,  
Po'lat Mo'min she'ri*

Allegro moderato

O'-zi oy - day, zi - rak - la - ri  
shil-dir, shil-dir. Chal-ga ning - da o- hang-la-ri xil-ma-xil-dir.  
Top- sang dar - rov bil- dir - ma, bil- dir - ma, bil- dir - ma.

Gum - ba - da - gum,  
gum - ba - da - gum, gum - ba - da - gum.

Top - sang - dar - rov bil - dir - ma,  
bil - dir - ma, bil - dir - ma.

Gum - ba - da - gum,  
gum - ba - da - gum, gum - ba - da - gum.

U - ning no - mi chil - dir - ma!

## OPAJON, QARANG

M.Ikromova  
*she'ri va musiqasi*

Allegretto

Qo'l - lar - ni o'y -  
na - tay - mi, O - pa - jon qa - rang. Cha-pak cha - lib be - ray - mi,

O - pa - jon qa - rang.  
O - pa - jon qa - rang.

Bir o'tirib turaymi, opajon, qarang  
So'ng aylanib beraymi, opajon, qarang.

## OSMONDAGI OY

*O'zbek xalq aytishuvi*

Moderato

*N. Norxo'jayev musiqasi*

Os-mon-da-gi oy, Sayd-a-zim boy, Ni-ma ye-yap  
san, ol-ma ye-yap-man, Ol-mang-dan tash-la, A-cham u-ri-sha-di  
A-chang o'l-sin, Xu-do saq-la-sin, Hov-ling-ni su-pur,  
Lo-li o'y-na-sin, Qo-zo-ning-ni och, Go'-ja qay-na-sin.

## O'YNAYLIK OMON

*O'zbek xalq qo'shig'i*

*Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan*

Allegro moderato

Gul bo-g'im, me-ning bo-g'im, so'n-mas si-ra chi-ro-g'im.  
bog'-cha-lar-da yay-ray-man, o't-ma-sin yoshlik cho-g'im.  
O'y-nay-man o-mon yax-shi-lik za-mon.

Baxtli bolaligizim  
Yashnaydi hayotimiz,  
Ayni yoshlik chog'ida  
Toshgandir g'ayratimiz.

*Naqarot:*  
O'ynayman omon,  
yaxshilik zamon.

UZUM

Allegro moderato

*D.Omonullayeva musiqasi,  
Po'lat Mo'min she'ri*

U-zum pish-di, u-zum pish-di. Ish-kom-lar-ga  
ko'-zim tush-di. Ho-si-li mo'l-bosh-bosh u-  
zum boq-qan sa-ri, boq-qan sa-ri to'-yar ko'-zim.  
zim.

Da capo

Oftobdan nur shimirganlar,  
Yetilganlar, semirganlar.  
Bobom bilan bog' oralab,  
Uzum uzdik, uzum uzdik, xo'p saralab.

NISHOLDA

Allegretto moderato

*D.Omonullayeva musiqasi,  
Rauf Tolib she'ri*

To'y-da, bay-ram-da, ro'-za ay-yom-da tan-siq ni-shol-da,  
tor-tiq ni-shol-da Muz-qay-moq-dan zo'r ma-na, ya-lab ko't,  
oh, oh ni-shol-da, op-poq ni-shol-da. Ma-za-li, tot-li, oh!  
Mis-li nov-vot-li, oh! Oh-oh, ni-shol-da, op-poq ni-shol-da! Muz-qay-

Buncha ham shirin  
Kim bilar sirlar?  
Oh-oh nisholda  
Qaymoq nisholda.

Mehmonga yuzim  
Xizmatda o'zim,  
Tayyor nisholda  
Mador nisholda.

*Nagarot:* Mazali totli oh!  
Misli novvotli oh!  
Muzqaymoqdan zo'r, mana yalab ko'r,  
Oh, oh, nisholda, qaymoq nisholda!

*Moderato*

**NAVRO'Z**

*D.Omonullayeva musiqasi,  
Po'lat Mo'min she'ri*

## MUSIQA TINGLASHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Musiqani tinglay bilish va undan zavqlana olish ham san'at hisoblanadi. Insonlarda musiqa tinglash madaniyati yoshlidkan shakllanadi. MTM larda bolalar musiqa tinglash ko'nkmalariga ega bo'la boradilar. Avvalo shuni qayd etish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra, tinglash imkoniyati kengroq bo'ladi. Musiqa tinglash orqali bolalarning badiiy idroki rivojlanadi. Musiqashunos olimlar bolalarni musiqiy tarbiyalashda musiqa tinglash faoliyatiga alohida e'tibor bermoqdalar. Zero, har bir insonning musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa tinglash ko'nikmasi muhim o'rinn egallaydi.

Musiqa mashg'ulotlari bolalarning musiqa tinglash ko'nikmasini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- bolalarni yoshiga mos xalq, mumtoz va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirish;
- bolalarning musiqiy asarlarda tasvir etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatlarini rivojlanterish;
- musiqa haqidagi boshlang'ich ma'lumot (asar nomi, bastakor va shoirlarning nomi)larni, asar mazmunini ko'rgazmali qurollar yordamida ochib berish;
- tinglagan asariga baho bera olish, uning xarakteri, janrini aniqlashga o'rgatish;
- tinglagan asariga mos rasmlar chizish, hikoyalarni tuzish, musiqiy ritmik harakatlar bajarishni o'rgatish.

Musiqa tinglash uchun tavsiya etilgan va repertuarga kiritilgan musiqiy asarlar musiqiy obrazlar orqali bolalarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, hamjihatlik, rahm-shafqat kabi xislatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu tarbiyaviy maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish bolalarni o'rganilgan asarlar nomini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarini farqlash hamda asarlarga ma'lum ma'noda baho bera olishga o'rgatadi. Bolalar diqqati uncha barqaror bo'lganligi tufayli ular yorqin yangraydigan musiqiy asarlarni idrok etishga qodir bo'ladi. Kichkintoylar, ayniqsa, so'zli asar (qo'shiq)larni yaxshi idrok etadilar, chunki so'z va ohang birligi musiqiy asar mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, musiqa rahbari kuy-qo'shiqlarni ijro etganda uning tanish ovozi, ifodalni intonatsiyasi, mimikasi va ishoralarini maftun etadi. Shu vaqtida bolalarda musiqa ohanglari orqali hosil bo'lgan zavqlanish, quvonish, ajablanish kabi holatlarni kuzatish mumkin. Yangi musiqiy asar bilan tanishtirishda musiqa rahbarining jonli, ifodalni ijrosi va qisqa, qiziqarli kirish so'zi katta rol o'ynaydi. Bolalar musiqiy asarning mazmunini bilib olganlaridan so'ng ularda o'z taassurotlarini hikoya qilib berishga ishtiyoq paydo bo'ladi.

**BAHOR VALSI**

Muhammadjon Mirzayev  
musiqasi

*Moderato*

mf

p

f

sforz.

dim.

d

p

sforz.

DURDONA QIZ

Allegretto

*Sh. Yormatov musiqasi,  
M. Muhamedova she'ri*

The musical score consists of two staves of music. The top staff is in G major and the bottom staff is in C major. The lyrics are written below the notes in both Russian and Kazakh. The vocal parts are separated by a vertical bar line.

Top Staff Lyrics:

- ay - yay - yay ay - yay - yay ay - yay - yay
- Ov-qat-lan-sa bo-la-lar Dur-do-na so'r-g'ich so'-nar
- o-lib qo'y-sang ma-bo-do yi-g'i-ga la-bin bu-rar
- ay - yay - yay ay - yay - yay

Bottom Staff Lyrics:

- Dur-do-na xo'p go'-zal qiz,
- so'z-la-ri ham a-sal qiz
- Am-mo bir o-da-ti bor, so'r-g'i-chin qo'y-mas zin-hor

The musical score consists of two staves of music. The top staff is in G major and the bottom staff is in C major. The lyrics are written below the notes in both Russian and Kazakh. The vocal parts are separated by a vertical bar line.

Top Staff Lyrics:

- I. Qaytarish uchun: ay - yay - yay ay - yay - yay
- II. Tamomlash uchun: yi-g'i-ga la-bin bu-rar Biz un-ga de-may-miz hech, ay - yay - yay

Bottom Staff Lyrics:

- I. Qaytarish uchun: yi-g'i-ga la-bin bu-rar
- II. Tamomlash uchun: Biz un-ga de-may-miz hech, ay - yay - yay

Bottom Staff Additional Text:

- Qo'shiq aytolmas quvnab
- Biz kabi yayrab o'ynab,
- So'r-g'ichidan bo'shamas
- Bu odat yaxshi emas.
- Ay-yay-yay, ay-yay-yay.
- So'r-g'ichini tashlasa
- Bizday o'ynab yashnasa,
- So'rmasa u erta-kech,
- Biz unga demaymiz hech:
- Ay-yay-yay, ay-yay-yay.

VALS

D.Shostakovich musiqasi

Allegro-moderato

Musical score for Vals by D. Shostakovich, fortepiano part. The score consists of eight staves of music in common time, key signature of one flat. The tempo is Allegro-moderato. The dynamics include *p* staccato and *mf*. The music features eighth-note patterns and sixteenth-note figures.

Musical score for Qashqarcha by H. Rahimov, fortepiano part. The score consists of four staves of music in common time, key signature of one flat. The tempo is indicated as *f*. The dynamics include *p*.

QASHQARCHA

O'zbek xalq kuyi

Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan

Moderato

Musical score for Qashqarcha by H. Rahimov, fortepiano part, Moderato section. The score consists of two staves of music in common time, key signature of one sharp. The dynamics include *mf*.

Musical score for Qashqarcha by H. Rahimov, fortepiano part, continuation. The score consists of two staves of music in common time, key signature of one sharp.

Piu mosso

Musical score for Qashqarcha by H. Rahimov, fortepiano part, Piu mosso section. The score consists of two staves of music in common time, key signature of one sharp. The dynamics include *f*.

Musical score for Qashqarcha by H. Rahimov, fortepiano part, continuation. The score consists of two staves of music in common time, key signature of one sharp.

POLKA

Vivace

Musical score for "POLKA" by M. Glinka. The score consists of three staves of music for piano. The first staff uses treble clef, the second staff bass clef, and the third staff bass clef. The key signature is A major (no sharps or flats). The tempo is Vivace. The dynamics include *p* (piano) and *f* (forte). The music features eighth-note patterns and sixteenth-note figures.

*M. Glinka musiqası*

PODACHI

Allegretto

Musical score for "PODACHI" by Akbarov. The score consists of four staves of music for piano. The first two staves use treble clef, and the last two staves bass clef. The key signature is A minor (one flat). The tempo is Allegretto. The dynamics include *p*, *mf*, *f*, *dim.*, and *p*. The music features eighth-note patterns and sixteenth-note figures.

*Ikrom Akbarov musiqası*

ITALYANCHI POLKA

Moderato, legiero

*S. Rachmaninov musiqası*

Musical score for "ITALYANCHI POLKA" by Rachmaninov. The score consists of three staves of music for piano. The first staff uses treble clef, the second staff bass clef, and the third staff bass clef. The key signature is A major (no sharps or flats). The tempo is Moderato, legiero. The dynamics include *mf*, *cresc.*, *dim.*, and *p*. The music features eighth-note patterns and sixteenth-note figures.

## MUSIQIY-RITMIK HARAKATLARNI BAJARISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Musiqa mashg'ulotlarida musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish bolalarning axloqiy-mavniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va jismonan sog'lom o'sishlariiga yordam beradi. Eng muhimi, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarning musiqiy iqtidori, ritmik tuyg'usi shakllanadi, xotirası charxlanadi. Musiqa, raqs, o'yinlar kichik yoshdag'i bolalarga ayniqsa tez ta'sir etadi. Musiqiy-ritmik harakatlar bolaning harakatchan, chaqqon bo'lishiga yordam beradi, qomatining to'g'ri o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolaga tetiklik va g'ayrat bag'ishlab, turli emotsiyonal hislarni uyg'otadi. Raqs kuyular esa bolalarda ajoyib ichki his-tuyg'ular, kechinmalar hosil qilib, beixtiyor raqsga tushishga undaydi va ularni behad zavqlantiradi. Ko'rinish turibdiki, musiqa bilan harakat turlarini ijro etishda bolalarning bog'chada bajaradigan o'yin va harakatlari alohida ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilarning bog'chalarda bajaradigan musiqiy-ritmik harakatlari quyidagilardan iborat:

- tartibli qadam tashlash, yurish, chopish, sakrash kabi harakatlar;
- sahnalashtirilgan sujetti o'yinlarda (mashinani boshqarish, quyoncha, ayiq polvon, tulki, samolyot, paravoz, paxta terish, gul terish kabi turli) harakatlarni bajarish;
- kichik hajmli o'zbek xalq kuyulari, sodda bayondagi bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar folklori namunalaridan zavqlanish, mazmunini anglash va oddiy harakatlar yordamida milliy raqs elementlarini bajarish;
- o'yinda obrazli harakatlarni ifodalash uchun musiqiy-ritmik harakatlarni mustaqil o'zlashtirish;
- raqs va laparlar. Musiqa ritmiga muvofiq harakatlarni almashtirib bajarish. Bu harakatlar bog'chada musiqa bilan bajariladigan barcha harakatlarni o'z ichiga oladi.

Musiqa mashg'ulotlarida bajariladigan harakatlarni asosan uch turga bo'lish mumkin:

- a) musiqali o'yinlar (sujetli);
- b) raqs;
- d) qo'shiqqa mos musiqiy-ritmik harakatlar.

Musiqa mashg'ulotlarida bolalarning aqliy va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yinlar hamda musiqa ostida harakatlar bajarish katta ahamiyatga ega. Musiqali o'yinlar o'z maqsadi va vazifalariga ko'ra didaktik o'yinlarga mansub bo'lib, ular asosan harakat vositasida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

**UFOR**

O'zbek xalq kuyi

Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan

**Allegro**

2/4 Allegro

*mf*

Fine

2/4

**LAZGI**

*f*

*mf*

Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan

*f*

*mf*

*f*

NAMANGANNING OLMASI

Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan

**Moderato**

TEGIRMON

T.Lomova musigasi

**Moderato**

CHITTI GUL

O'zbek xalq kuyi

Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan

**Allegretto**

LENTALAR BILAN RAQS

Moderato

Sonya Abramova musiqasi

Musical score for 'LENTALAR BILAN RAQS' by Sonya Abramova. The score consists of six staves of piano music. The first staff is in common time (indicated by '2') and has a dynamic marking of *mp*. The second staff begins with a dynamic *f*. The third staff starts with a dynamic *f*. The fourth staff has a dynamic marking of *mp*. The fifth staff begins with a dynamic *f*. The sixth staff ends with a dynamic *f*. The score includes various musical markings such as slurs, grace notes, and dynamic changes.

OLMA PISHGANDA KELING

Allegro

Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan

Musical score for 'OLMA PISHGANDA KELING' by Habibullo Rahimov. The score consists of six staves of piano music. The first staff begins with a dynamic *f*. The second staff begins with a dynamic *f*. The third staff begins with a dynamic *f*. The fourth staff begins with a dynamic *f*. The fifth staff begins with a dynamic *f*. The sixth staff ends with a dynamic *f*. The score includes various musical markings such as slurs, grace notes, and dynamic changes.

## OLMACHA ANOR

O'zbek xalq kuyi

N. Norxo'jayev  
fortepiano uchun moslashtirgan

Moderato = 66

A musical score for two staves. The top staff is for the right hand (melody) and the bottom staff is for the left hand (harmony). The key signature is one sharp, indicating G major. The time signature changes between common time and 2/4 throughout the piece. The dynamic markings include 'p' (piano), 'f' (forte), and 'pp' (pianissimo). The tempo is marked as 'Moderato = 66'. The music consists of eighth and sixteenth note patterns.

## NAVRO'Z RAQSI

Quvnoq

D. Omonullayeva musiqasi

A musical score for two staves. The top staff is for the right hand and the bottom staff is for the left hand. The key signature is one sharp, and the time signature is common time. The dynamic marking 'p' is present. The music features eighth and sixteenth note patterns with some grace notes.

## VALS

R. Rizayeva musiqasi

Allegro

A musical score for two staves. The top staff is for the right hand and the bottom staff is for the left hand. The key signature is three flats, indicating A minor. The time signature is common time. The dynamic marking 'f' is present. The music consists of eighth and sixteenth note patterns.

## SHALOLA

N. Norxo'jayev musiqasi,  
Rauf Tolib she'ri

### BOLALAR CHOLG'U ASBOBLARIDA JO'R BO'LISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Musiqa mashg'ulotlari davomida bolalar musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish bolaiar uchun g'oyatda yoqimlidir, chunki musiqa cholg'u asboblari tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Bolalar musiqa cholg'u asboblari, birinchi navbatda, bolalarda ijrochilik mahorati, musiqiy uquvi va qiziqishni o'stiradi. Musiqa asarlarini diqqat bilan tinglash, musiqaning xarakterini his etish musiqa cholg'u asboblarini farqlashga, tovush balandligini bishishga o'rgatadi. Bolalar qo'shiqni kuydan ajrata olishga, qo'shiq so'zlarini aniq, tushunarli kuylashga, kirish qismidan so'ng qo'shiqni birga boshlash va tugallashga, metallofonda oddiy kuylarni, doirada oddiy ritmlarni ijo etishga harakat qiladilar. Musiqa mashg'ulotlari bolalar guruhidan bolalar musiqa cholg'u asboblari orkestri, vokal ansamblari tuzish mumkin bo'ladi. Kichik hajmdagi o'zbek xalq kuylaridan boshlab, kattaroq asarlarga bolalar shaqildoqchalar, doirachalar va rumbalarda turli ritmik usullarni chalishni o'rganadilar.

Bolalar musiqa cholg'u asboblari kuychan va kuylar bo'lgan shovqinli asboblar kabi ikki turga bo'linadi.

I. Kuychan bo'lgan musiqa cholg'u asboblariga metallofon va kselofon kiradi.

II. Kuychan bo'lgan shovqinli asboblarga doirachalar, bubenchalar, oddiy yog'och qoshiqlar, kichik shaqildoqlar, qo'ng'iroqchalar, barabanchalar, rumbalar, uchburchak marakassalar kiradi.

Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi.

1. Dastlab bolalar kuyni diqqat bilan tinglab, musiqiy asarni tahlil qiladilar.

2. Turli musiqiy-ritmik harakatlar yordamida kuyni ritmik his etadilar. So'ngra qo'l yoki oyoq harakatlarini bajarib kuyni xotiralarida saqlab qoladilar.

3. Musiqiy-ritmik harakatlar orqali jo'r bo'lishni aniq bajara olgan bolalarga kuychan bo'lgan shovqinli musiqa cholg'u asboblarida kuya jo'r bo'lishga ruxsat beriladi.

4. Keyinchalik esa passiv bolalar cholg'u asboblarini chalishga jaib etiladi.

5. Bolalar musiqa cholg'u asbobida jo'r bo'lish, grafik ko'rsatmalar, rasmlarga qarab kuy ijo etish bog'cha bolalarining musiqiy ijodkorligini oshiradi.

Qo'shiq kuylash va raqsga tushishni o'rgatishda bolalar cholg'u asboblaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Bu mashg'ulot bolalarda tembr uquvini rivojlantiradi, xotirasni, musiqiy uquvi, ritm tuyg'usini o'stiradi. Bolalar cholg'u asboblarida ansambl hosil qilib kuy ijo etish bolalarda musiqaga yanada qiziqish uyg'otadi, natijada ularning musiqiy qobiliyatları shakllanadi.

### Allegretto

The musical score consists of two staves of music. The top staff is for the treble clef (G-clef) and the bottom staff is for the bass clef (F-clef). The music is in common time (indicated by 'C'). The score includes dynamic markings such as 'p' (piano), 'mf' (mezzo-forte), 'f' (forte), 'mp' (mezzo-piano), and 'f' (forte). The lyrics are written in both Russian and Uzbek. The lyrics for the first section are: 'Tog'-lar - dan o- sha- san sha - lo - la, sha - lo - la. Gu - vil - lab to- sha- san'. The lyrics for the second section are: 'sha - lo - la, sha - lo - la. Qay - lar - ga sho - sha- san sha - lo - la'. The score concludes with a final section: 'sha - lo - la.'

## BUVIJONIM

Shoshmasdan, quvnoq

*D. Omonullayeva musiqasi,  
Yo'ldosh Suyunov she'ri*

mf

Shoshmasdan, quvnoq

o-na-gi-nam o-na-si  
sho'xza-bo-nim bu-vi - jon jon

Men-gateng-siz meh-ri-bor.  
So'z-la-ri-da seh - ri bor.

Allegro

mf

Er-tak ay-tib tol-may - di  
Er-ka-la-tib hor-may - di

Bu-vi-jon-nim bu-vi-jon  
Meh-ri-bo-nim bu-vi-jon

o-na-gi-nam o-na-si  
sho'xza-bo-nim bu-vi - jon jon

Baxtimga omon yuring  
Xushxandon davron suring.

Ko'zingiz namlanmasin,  
Dilingiz g'amlanmasin.

## ASP BO'LAMAN

*Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan*

Allegro

mf

**YOMG'IRJON**

Allegro

*N.Norxo 'jayev musiqasi,  
Rauf Tolib she'ri*

Yom-g'ir, yom-g'ir, yom-g'ir- jon, yog', yog', yog'.

O- la gov-mish si - gir - ni sog', sog', sog'. Deh-qon bu - vam

di - mo - g'i chog', chog', chog'. Bo' - lar bug' - moy

xir - mo - ni tog', tog', tog'.

**CHERTMAK**

*O'zbek xalq kuyi*

*Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan*

Allegretto

## QILICHMI, TO'QMOQ

Con moto

*N.Norxo'jayev musiqasi,  
Rauf Tolib she'ri*

Con moto

A - li, Va - li

ya-rush-di, qi - lich - mi, to'q - moq. Qi - lich - mi, to'q - moq. Qo'l be - ri - shib

so - rash - di, qi - lich - mi, to'q - moq. Qi - lich - mi, to'q - moq. Ya rash - ga - ni

ya - rash - di, qi - lich - mi to'q - moq. Qi - lich - mi to'q - moq.

### KICHIK GURUH (2 YOSHLI) BOLALARI BILAN MUSIQA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Bu guruh yoshidagi bolalar psixologik-fiziologik jihatdan hali to'liq rivojlanmagan, nutqi, xotirasi, tinglash malakasi, ovozi shakllanmagan, e'tiborini bir narsaga jaib qilish qobiliyati sust, ammo o'ta ta'sirchan va taqlidchan bo'ladilar. Bu yoshda bolalarda tevarak-atrofdagi narsalarga qiziqish tobora ortadi. Tarbiyachining shirin so'zlar, sho'x, qunnoq kuy-qo'shiqlar, o'yinlar ular e'tiborini o'ziga jaib etadi. Musiqa mashg'ulotida musiqa tinglash, kuylash bolalarda ovoz apparatining shakllanganligi bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Musiqa rahbari qo'shiqnı mayin, jonli kuylaydi, so'ng rasmlar, o'yinchoqlar yordamida mazmunini qisqacha hikoya qiladi. Savol-javob orqali qo'shiq mazmunini ochib beradi. Dastlab bolalar qo'shiqnı ijro eta olmaydilar. Ular takrorlanuvchi jumlalarni kuylaydilar, xolos. Bolalarda kuylash holati, talaffuz, ovoz hosil qilish, to'g'ri nafas olish kabi vokal malakalarini shakllantirish ishlari boshlanadi. Bolalar musiqa rahbarining qo'shiq kuylashini, musiqiy harakatlarini ko'rsatib berishga harakat qiladilar. Asta-sekin tevarak-atrofga munosabatlariда jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Sujeti-tasvirli o'yinlarda ular kattalarning harakatini kuzatib, real predmet o'miga o'yinchoqlardan foydalanaidilar. Tayoqcha yordamida qo'g'irchoqni «ovqatlantiradilar», kubik bilan ko'yakni «dazmolaydilar. Bolalar o'zlar uchun aniq mustaqil rolli o'yinlar tanlaydilar (ona, haydovchi, shifokor, tikuvchi, sotuvchi). Mashg'ulot jarayonida har xil xarakterdagи qo'shiqlarni qiziqish bilan tinglaydilar va ularni bir-biridan farqlay boshlaydilar.

Musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishdan ko'zda tutilgan vazifalar quydigillardan iborat:

- bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash, barmoqlarning mayda muskullarini rivojlantirish;
- jamoada birgalikda yurish ko'nikmasini rivojlantirish;
- sensor tarbiyani davom ettirish: (ko'rish, eshitish, sezish, idrok etish);
- bolalarda ijobji odatlarni shakllantirib borish;
- musiqa hissiy (emotsional) javob bera olishimi tarbiyalash;
- turli musiqa asboblari, magnit yozuvidagi kichik qo'shiq va kuylarni tinglashga ishtiyoy uyg'otish;
- bolalarni ertak, hikoya, she'rlarni berilib tinglashga o'rgatish;
- o'yinchoqlar, rasmlarni qiziqish bilan ko'rishga undash;
- bolalarning musiqa ostida asosiy harakat turlari: to'g'ri yurish, yugurish, sakrashni o'rganib olishlariga yordam berish;
- musiqa ohangiga, ritmiga mos harakatlar bajarish, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

T/r	Mashg'ulot mazmuni	Usul va usullar	Mashg'ulotning maqsadi va vazifalari
1.	Musiqiy-ritmik harakatlar. «Marsh». F. Nazarov musiqasi. «Yugurish». S. Abramova musiqasi. Chapak chalish va oyoq to'pillatish. «Yallama yorim» o'zbek xalq musiqasi.	Ko'rsatish, tushuntirish, rag'batlantirish, ogohlantirish.	Musiqa ritmiga mos yugurish va yurish. Sekin va tez tempni tushunish.
2.	Tinglash. «Qo'g'irchoqlar vals». S. Abramova musiqasi.	Suhbat, o'yin.	Musiqa mazmuni bilan tanishtirish va suhbat o'tkazish.
3.	Kuylash. «Ro'molcha». P. Mo'min she'ri, D. Omonullayeva musiqasi. «Archa qo'shig'i». M. Ikromova she'ri va musiqasi.	Tanishtirish, ijro, rag'batlantirish.	Qo'shiq mazmunini tanishtirib ko'rgazmalaridan foydalaniш.
4.	Raqs. «Ayiqchalar raqsi». I. Akbarov musiqasi.	Ko'rsatish, ogohlantirish, rag'batlantirish.	Raqsnинг har bir harakatini, sekin va tezligini ko'rsatib, tushuntrib berish.
5.	O'yin. «Ayiqchonvon va quyonchalar». S. Abramova musiqasi. «Ayiq». R. Rebikov musiqasi.	Tushuntirish, ko'rsatish.	O'yin qoidasiga rioya qilish, musiqa ohangiga qarab harakat qilish.

### KICHIK GURUH (3 YOSHLI) BOLALARI BILAN MUSIQA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Kichkintoyning rivojlanishiда uchinchi yosh o'tish bosqichi hisoblanadi. Bu yoshdagи bolalarning ikki yoshli bolalar bilan anchagina umumiyliklari bo'ladi, ammo bu yoshda muomala qilish malakasi, o'yin faoliyati, ularni o'rab turgan olam haqidagi dastlabki tushunchalarni o'zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Bu yoshda bolada musiqa faoliyatining har xil turlarini idrok etishning o'ziga xos xususiyati namoyon bo'la boshlaydi. U musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, raqsga tushish mumkinligini biladi va shunga ko'ra harakat qiladi.

Bolalar mayin alladan, jo'shqin, quvnoq kuydan turlicha ta'sirlanadilar. Ular e'tiborini ko'proq asarning ifodali tomonlari o'ziga jalb etadi. Kuylar va qo'shiqlar musiqa asarlarini idrok etish malakasini shakllantiradi. Ularga obrazli pyesalar (kuylar) berish tavsya etiladi: samolyot, qushchalar, ayiq, quyon va h.k.

Bolalarda kuy va ohanglarni farqlash qobiliyati musiqali-didaktik o'yinlar va mashg'ulotlarda shakllantiriladi. Buning asosida musiqiy tovushning xususiyatlari: tovush kattalarning kuylashiga taqlid qiladilar. Bu bolalarda ovoz apparati va nutqning shakllanishi oxiridagi tovushlarni aniq talaffuz qila boshlaydilar. Qo'shiq aytishning cho'ziqligi va yoshda esa cho'ziq qo'shiqchilik intonatsiyasi paydo bo'ladi.

Musiqiy-ritmik harakat malakalari bolalarda asosan to'g'ri yurish, yugurish, sakrash bo'shliqda mo'ljal olish topshiriqlari murakkablashadi. Musiqa tinglash vaqtida qo'shiqdagi obraz (o'yinchooq)ni ko'rsatish katta ahamiyatga ega. Bunda musiqa rahbarining so'zi muhim rol o'ynaydi. U qo'shiq mazmunini qisqacha tushuntiradi. Tushuntirishdan avval bolalar diqqatini qo'shiqdagi obrazga qaratadi.

Qo'shiqnı ifodalı ijro etib, tegishli o'yinchoplardan foydalaniш, qo'shiq mazmunini inssenirovkada ifodalash mumkin.

Kichik guruh uchun har bir musiqa mashg'ulotining davomiyligi 15–20 daqiqadan iborat, ya'ni:

- musiqiy-ritmik harakatlar – 5 daqiqani;
- tinglash – 3 daqiqani;
- kuylash – 5 daqiqani;
- raqs – 4 daqiqani;
- o'yin – 3 daqiqani tashkil etadi.

### MASHG'ULOTNING BORISHI

#### 1. Musiqiy-ritmik harakatlar.

Bolalar marsh ostida shaxdam qadamlar bilan zalga kirib kelishadi.

«Marsh». F. Nazarov musiqasi.

Musiqa rahbari: — Qani, bolajonlar, tezda qo'limizni belimizga qo'yib, oyoq uchida astagini yuguramiz.

«Yugurish». S. Abramova musiqasi.

Musiqa rahbari: — Bolalar, aytinlar-chi, «Marsh» chalsam sizlar qanday harakatni bajarasizlar?

Bolalar: — Mana bunday (yurishni ko'rsatishadi).

Musiqa rahbari: — To'g'ri, «Ayiqchalar raqsi» kuyini chalsam-chi? Sizlar nima qilasizlar? Ayiqchalar qanday yuradi?

Bolalar: — Mana bunday yuradi (ko'rsatishadi).

Musiqa rahbari: — To'ppa-to'g'ri. «Alla» kuyini chalsam sizlar nima qilasizlar? (Ijro).

(Bolalar harakatni ko'rsatadilar).  
(Ijro). «Ayiqchalar». Ikrom Akbarov musiqasi.

#### 2. Tinglash.

Musiqa rahbari: — Qizlar, hammangizning uyingizda qo'g'irchoqlaringiz bo'lsa kerak. Qani aytinlar-chi, ular qanday uxlashadi, menga kim ko'rsatib beradi? (Bolalar ko'rsatishadi).

Men sizlarga hozir «Qo'g'irchoqlar valsi» kuyini ijro etib beraman. Kuyni diqqat bilan tinglanglar va unga qanday raqs tushish mumkinligini o'ylab ko'ringlar.

### 3. Kuylash.

Musiqa rahbari: — Hozir sizga qo'shiqning boshlanishini ijro etaman. Eslab ko'ringchi. (Ijro). Endi «Ro'molcha» qo'shig'ini kuylaymiz.

Musiqa rahbari: — Aziz bolajonlar, yaqinda qaysi bayramni nishonlaymiz?  
Bolalar: — Yangi yil bayramini.

Musiqa rahbari: — To'ppa-to'g'ri. Bu bayramga kimlar keladi?  
Bolalar: — Qorqiz.

Musiqa rahbari: — Yana-chi?  
Bolalar: — Qorbobo.

Musiqa rahbari: — Qorbobo o'zi bilan sizlarga nimalar olib keladi?  
Bolalar: — Qorbobo o'zi bilan bizlarga sovg'alar olib keladi.

Musiqa rahbari: — Bolajonlar, Qorbobodan sovg'alar olish uchun sizlar she'r va qo'shiqlar aytib berishingiz kerak bo'ladi. Biz sizlar bilan bugun yangi qo'shiq — «Archa (Ijro). 1- bandi yodlanadi.)

(Ijro). «Archa qo'shig'i». M.Ikromova musiqasi

### 4. Raqs.

Musiqa rahbari: — Bolajonlar quyonchalar qanday sakraydilar? Ko'rsatib bering. (Harakatni ko'rsatadilar). Qishda ayiqchalar qanday yuradi? (Harakatni ko'rsatadilar). Endi ayiqpolvon va quyonchalar o'yinini o'ynaymiz. (Ijro).

Musiqa rahbari: — Yaxshi, barakalla, bolajonlar. Bugun hammangiz mashg'ulotda faol ishtirok etdingiz. Rahmat, sog'-salomat bo'linglar. Hozir musiqa ostida qadam tashlab, zaldan chiqib ketamiz.



Tempo di marcia

MARSH

F.Nazarov musiqasi

QO'G'IRCHOQLAR VALSI

S.Abramova musiqasi

Moderato

**YUGURISH**

*S.Abramova musiqasi*

**Allegretto**



**AYIQCHALAR RAQSI**

*Ikrom Akbarov musiqasi*

**Andantino**



**RO'MOLCHA**

*D.Omonullayeva musiqasi,  
Po'lat Mo'min she'ri*

**Andantino**

Ro'- mol cha-yu, ro'-mol-chn, gul - la-ri xol - cha-xol - cha.  
Ol - cha- si har xil e - kan Ye - til-gan sar - xil e - kan

Xol e - mas ol - cha - ol - cha, ro'-mol - cha - yu, ro'- mol - cha.  
Ba' zi- la - ri push - ti rang ko'p - la - ri qil - zil e - kan

Coda

ARCHA QO'SHIG'I

Allegretto

M. Ikromova  
she'ri va musiqasi

Qor-bo-bo-ning sov-ga-si, Be-za-til-gan ar-chas-i.

Lay-lum, la-la-lum, Be-za-til-gan ar-chas-i.

Chiroylidur archamiz  
Quvnab boqdik barchamiz,  
Laylum lalalum,  
Quvnab boqdik barchamiz.

Aylanadi archamiz  
Biz ashula aytamiz,  
Laylum lalalum,  
Biz ashula aytamiz.

**O'RTA GURUH (4 YOSHLI) BOLALARI BILAN MUSIQA  
MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR**

O'rta guruh bolalarining atrofdagi hodisalarga qiziqishi ancha ortadi, ular musiqa rahbariga turli savollar bera boshlaydilar. Bu yoshda nutq rivojlanishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi: bolalarming so'z boyligi ortadi, ular tevarak-atrof haqida fikr yurita oladigan bo'ladir, badiiy asarlarga, musiqa – ritmga ta'sirchanlik kuchayadi.

To'rt yoshli bolalar musiqadan emotsiyonal ta'sirlanadilar. Ular musiqadagi yorqin kayfiyatni (musiqaning sho'x yoki osoyishta ekanini) oson farqlaydilar. Tanish qo'shiq va kuylarni bilib oladilar, ularning nomlarini aytadilar. Bolalar tovushlar balandligini, tembrini farqlay oladilar, musiqa rahbarining ovoziga yaxshi moslashadilar, cho'zib kuylay boshlaydilar. Ular yurish, yugurish ritmini, yorqin dinamik va temp o'zgarishlarini, asar (kuy)ning 2 qismli shaklini harakat bilan ifodalay oladilar.

O'rta guruhlarda musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishdan maqsad va ko'zda tutilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- turli kayfiyatdagagi musiqa asarlariiga qiziqishni uyg'otish;
- musiqa yangraganda undagi o'zgarishlarni his etish;
- tovushlar baland-pastligini, 2–3 ta bolalar cholg'u asboblarining tembrlarini farqlash;
- yurish-yugurishga mos harakatni ifodalash;
- tanish qo'shiq va kuylarni tinglab farqlash qobiliyati va malakalarini tarbiyalash;
- qo'shiq kuylashda kuychanlik (tovushlarni mayin cho'zish), sodda oddiy ritmdagi qo'shiqlarni sof intonatsiyada kuylash, jamoada kuylash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish;
- raqs va obrazli harakatlarni o'rganishda musiqa va harakat birligini rivojlantirish.

To'rt yoshli bolalarda musiqiy ijodkorlikning dastlabki kurtaklari namoyon bo'ladi. Ular turli obrazlarni yangicha talqin eta boshlaydilar, ijodi yutuqlaridan zavqlanadilar, mustaqil fikr yuritishga o'rganadilar.

O'rta guruh bolalarining diqqat-e'tboriga oldingi guruhgaga qaraganda birmuncha turg'un, nutqi, xotiras, musiqani idrok etish qobiliyati ancha rivojlangan bo'ladi. Ular raqsbob kuylarni jonli ijro etadilar. Bu yoshda musiqaning mazmuni va xarakterini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Musiqa asarlari ham bolalar xotirasida ancha vaqt saqlanib qoladi, ular o'z taassurotlarini hikoya qilib berishga harakat qildilar. Qo'shiqlarni musiqiy harakatlarni aniq bajarib ijro etadilar. Bolalar cholg'u asboblarida yengil kuylarga jo'r bo'lish qobiliyatiga ega bo'ladir. Musiqa mashg'ulotlarida faol qatnashib, berilgan topshiriqlarni kichik guruhgaga qaraganda aniq bajara oladilar. Musiqiy ertaliklar, tadbirlarda faol qatnashadilar. O'rta guruh uchun musiqa mashg'ulotlarining davomiyligi 20–25 daqiqani tashkil etadi.

Ya'ni:

- musiqiy-ritmik harakatlar – 5 daqiqani;
- tinglash – 3 daqiqani;

- cholg'ularda jo'r bo'lish - 4 daqiqani;
- ovoz sozlash - 2 daqiqani;
- kuylash - 7 daqiqani;
- o'yin - 4 daqiqani.

### O'rta guruh uchun musiqa mashg'ulotlarining taxminiy rejasi

Mashg'ulot mazmuni	Ushub va usullar	Mashg'ulotning maqsad va vazifalari
I.Musiqliy-ritmik harakatlar. I.«Marsh». S.Abramova musiqlisi. 2.«Do'loncha», o'zbek xalq kuyi: a) oyoq to'pillatish, o'tirib-turish; b) qo'llarni yonga tashlash.	Ifodali ijro ko'rsatish, rag'batlantirish, ogohlantirish.	Ritmga mos qadam tashlash, yengil yugurish, oyoq va qo'l harakatini ritmga mos bajarishga o'rgatish. Bolalarda musiqliy-ritmik harakat ko'nikmasi va malakasini rivojlantirish.
II.Tinglash. «Kuz». S.Abramova musiqlisi, N.Ro'zimuhamedov she'ri.	Ijro, ko'rgazmati suhbat.	Asar mazmuni va kayfiyati bilan tanishtirish, musiqa ohangini his etish va musiqa tinglash madaniyatini rivojlantirish.
Didaktik o'yin: kirish qismi, qo'shiqning bandi va cholg'u kuyini farqlash.	Tushuntirish, ko'rsatish, rag'batlantirish, ogohlantirish.	His etish va musiqa tinglash madaniyatini rivojlantirish.
Ovoz sozlash: «Zina». D.Omonullayeva musiqlisi, P.Mo'min she'ri.	Ko'rsatish, o'yin.	Tovush yo'nalishini his etishga o'rgatish. Sof ovoz hosil qilish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish.
Kuylash: «Bug'doy». R.Tolib she'ri. N.Norxo'jayev musiqlisi. «Paxtaoy». F.Nazarov musiqlisi, T.Ilhomov she'ri.	Ijro, ko'rgazmali suhbat-tushuntirish.	Davr bilan hamohang, fasla mos qo'shiqlarni kuylashga o'rgatish. Musiqa jo'rligida ovozning sof va jarangdorligini rivojlantirish.
O'zbek milliy cholg'ularida jo'r bo'lish. «Yallama yorim». H.Rahimov qayta ishlagan.	Ko'rsatish, tushuntirish, ogohlantirish, rag'batlantirish.	Bolalarni milliy cholg'ular bilan tanishtirish, zarbli cholg'ularda jo'r bo'lish.
O'yin: Joyingni egalla. «Marsh». S.Abramova musiqlisi. «Do'loncha» o'zbek xalq kuyi yoki «Yallama yorim» o'zbek xalq kuyi.	Tushuntirish, ko'rsatish, ogohlantirish, rag'batlantirish.	O'yin davomida harakat ijodkorligini o'stirish. Bolalarni jamoada faolligini oshirish.

### MASHG'ULOTNING BORISHI

Bolalar zalga kirmasdan avval musiqa rahbari bilan salomlashadilar.

Musiqa rahbari: — Bolalar, hozir marsh ostida musiqa mos holatda yuramiz (ijro). Endi yengil yuguramiz (oyoq uchida). O'g'il bolalar qo'lini belga qo'yadilar, qizlar etagini ushlab o'ng oyoqni to'pillatadi (I qism). Mana bu kuya o'tirib-turamiz. Qo'llarni yonga tashlaymiz (II qism). Yaxshi, endi joyingizga marsh ostida kelib o'tiring.

Hozir qo'shiq tinglaymiz, nima haqida ekanligini aytasiz. (Ijro).

Bolalar: — Kuz haqida ekan.

Musiqa rahbari: — To'g'ri, kuz haqida. Kayfiyati qanday, mayinmi, sho'xmi?

Bolalar: — Kayfiyati mayin, kuychan (musiqa rahbari kuz rasmini ko'rsatib, yana ijro etib beradi).

Musiqa rahbari: — Hozir qo'lingiz bilan kirish qismini ko'rsatasiz, qo'shiq bandida qo'lingizni o'rtaga harakatlantirasiz, cholg'u qismida chapak chalib qo'yasiz (ijro).

Musiqa rahbari: — Mana bu zinachada tovushlar joylashgan. Hozir shoshmay kuylay boshlaymiz (do-re-mi-fa-sol) du-du-du-du qo'limiz bilan ko'rsatamiz. Bolalar, endi «Bug'doy» qo'shig'ini takrorlaymiz. (Ijro). Men yana yangi qo'shiq ijro etaman, uning nima haqida ekanligini aytasiz. (Ijro).

Bolalar: — Paxta haqida ekan.

Musiqa rahbari: — To'g'ri, paxta — bizning boyligimiz, faxrimiz (paxta rasmi yoki o'zi ko'rsatiladi). «Chanoq» degani paxta joylashgan joy. Mana bu xirmon — terilgan paxtalar to'plab quritiladigan joy ma'nosini anglatadi. (So'ng «Paxtaoy» qo'shig'ini musiqliy jumllalarga bo'lib, oldin naqarotini, keyin bir bandini o'rgatadi).

Bu bizning milliy cholg'ularimizdan doira. Hozir hammamiz «Yallama yorim» kuyiga chapak chalib jo'r bo'lamiz. (Ijro).

Endi o'rnimizdan turib, marsh ostida doira hosil qilamiz. «Yallama yorim» kuyiga o'yinda tushamiz.

Ana endi stulchalar oldiga boramiz, o'rtadagi bola turganda, sizlar o'tirasizlar. U o'tirganida esa sizlar turasizlar. Kuyning I va II qismida o'rtadagi bola hammaga qo'shilib, bir tomonga harakatlanadilar. Musiqa to'xtashi bilan I bolaga joy yetmay qoladi. U o'rta qichqadi va o'yin davom etadi.

Musiqa rahbari: — Bolalar, bu mashg'ulotga yaxshi qatnashdingiz. Endi «Marsh» musiqlisi ostida zaldan chiqib ketamiz.

Rahmat, hammamiz kel yonimga, yo'q-yo'q harakatini bajaramiz (I qism). Endi koptokni yuqoriga otamiz (II qism).

MARSH

*Tempo di marše*

*D.Omonullayeva musiqasi*

DO'LONCHA

*Allegro*

*Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan*

KUZ

*S.Abramova musiqasi,  
N.Ro'zimuhamedov she'ri*

*Allegretto*



Xil-xil pishdi nok, gilos,  
Ochildi paxtamiz soz,

Ochildi paxtamiz soz,  
Paxtamiz, jon paxtamiz.

### ZINA

Moderato, non troppo

Musical score for 'ZINA' in common time (C). The vocal line is in soprano C-clef, and the piano accompaniment is in bass F-clef. The vocal part includes lyrics: Yu-ko-ri-ga o-lib chi-qa, as-ta as-ta, Qa-dam qo'y-sang tu-shi - ra-di ya-na past-ga. The piano part features rhythmic patterns. The vocal line continues with: stacc. Qu-ni bir bor o'z - ni si - na, u - dir ni - ma?



### BUG'DOY

*N. Norxo'jayev musiqasi,  
Rauf Tolib she'ri*

Musical score for 'BUG'DOY' in common time (C). The vocal line is in soprano C-clef, and the piano accompaniment is in bass F-clef. The vocal part includes lyrics: Yakka, Xor, Yakku, Ek-kan e-dim ko'-kat bol - di, don bol - di, don bol - di. Pish - gan - dan song, sempre stacc. The piano part features rhythmic patterns. The vocal line continues with: Yakka, Xor, op-poq - qi - na non bol - di, non bol - di. E - lim boy, e - lim boy,

Xor

ni - ma - ga boy?  
E - lim boy,  
c - lim bay, e - kar bug' - doy.

### PAXTAOY

Allegretto

Fatoh Nazarov musiqasi,  
To'lqin Ilhomov she'ri

Biz-ning ku-mush pax - ta - oy.  
To' - lib chiq-ding cha-noq - qa.  
Da - la - miz - ga sen chi - roy.  
Ku - lib boq-ding har yoq - qa.

Pax - ta, pax - ta, jon - pax - ta, yur - tim sen - ga kon pax - ta.  
Yulduzlardek sochilib, O'lkamga fayz bersam,  
Lo'ppi-lo'ppi ochilib, Dillarni xushnud etsam.

### YALLAMA YORIM

O'zbek xalq xuyi  
Habibullo Rahimov fortepiano uchun moslashtirgan

Allegro moderato

## KATTA GURUH (5 YOSHLI) BOLALARI BILAN MUSIQA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Besh yoshli bolalarda o'ynab kuylash, rasm solish, idrok qilish faoliyatları o'rta guruh bolalariga qaraganda ko'proq rivojlangan bo'ladi. Bolalar o'yinchoqlarini rangi, turiga qarab qismrlarga ajratib chiga oladilar. Bu yoshdag'i bolalar predmetlarning hissiyot bilan birga estetik hissiyot ham rivojlanadi. Qo'shiq, rasm, ertak, hikoya-tasvirini, turli musiqa cholg'ularining tembrini, musiqa ohangi kuchini farqlay oladilar. Katta guruh musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishdan maqsad va ko'zda tutilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- bolalar nutqini takomillashtirish, so'zlarni aniq talaffuz etishga o'rgatish;
- musiqa asarlari bilan tanishishda bolalarning badiiy idrokini o'stirish;
- musiqa asarlaridan emotsiyonal ta'sirlanish, ularga qiziqish uyg'otish;
- asar mazmunining ifoda vositalarini aniqlay bilish ko'nigmalarini rivojlanтирish;
- qo'shiq so'zlarini tabiiy ovozda, zo'r qismay, to'g'ri talaffuz qilib kuyashga o'rgatish;
- musiqaning yorqin xarakterini ifodalab, dinamika tempi, registrdagi o'zgarishlarni his etib yurish. Obrazlarni musiqali o'yinda ifodalash, oddiy ritmik kuylarni metallofonda ijro etish;
- oddiy ijrochilik malakasini shakkantirish. Fortepiano jo'rligida ovozning tabiiy va sof jarangdorligini hosil etish;
- turlicha kayfiyat beruvchi musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, o'yin va raqs harakatlarni improvizatsiya qilish;
- bolalar cholg'u asboblarida oddiy ijrochilik usulini bajarish.

Katta guruh bolalarida musiqiy asar mazmuni va xarakterini idrok etish, o'z taassu-rotlarini hikoya qilib berish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Ular mashg'ulotlarda faol qatnashib, berilgan topshiriqlarni o'rta guruh bolalariga qaraganda aniq bajara oladilar. Besh yoshli bolalar musiqaning xarakteri va mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlar tartibini eslab qolish va ifodali qilib ijro etishga moyil bo'ladi. Qo'shiqlarni ohangli ijro etib, xalq raqs va o'yinlaridagi harakatlarni tayyorgarliksiz bajara oladilar. Bolalar cholg'u asboblarini tovush tembriga ko'ra ajratadilar va ularni turli uslublarda chalish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Katta guruh uchun musiqa mashg'ulotlarining davomiyligi 25–30 daqiqani tashkil etadi:

- musiqiy-ritmik harakatlar – 5 daqiqani;
- tinglash – 3 daqiqani;
- cholg'uda ijro – 3 daqiqani;
- ovoz sozlash – 3 daqiqani;
- kuylash – 8 daqiqani;

- musiqaviy-ritmik harakat. Raqs – 4 daqiqani;
- o'yin – 4 daqiqani.

### Katta guruh uchun musiqa mashg'ulotlarining taxminiy rejasi

Mashg'ulot mazmuni	Ushub va usullar	Mashg'ulotning maqsad va vazifalari
1. Musiqiy-ritmik harakatlar: «Marsh Teodoro». J. Bize musiqasi. «Yugurish». S. Abramova musiqasi. «Prujina mashqi». S. Abramova musiqasi.	Ko'rsatish, ogohlantirish, rag'batlantirish, tushuntirish.	Musiqa ga mos ravishda yurish. Yengil harakatlanish. Musiqa ritmini oyoqda ko'rsatish. Yarim o'tirib turgan holda doira bo'lib yurish.
2. Tinglash: «Qari navo» o'zbek xalq kuyi.	Ijro, suhbat.	Asar kayfiyatni va mazmuni bilan tanishtirish.
«Qari navo». 3. Dutor cholg'usida je'r bo'lish.	Ko'rsatish, tushuntirish.	Kuchli hissaga zarb berish ko'nigmalarini rivojlanтирish.
4. Ovoz sozlash: «Zina». D.Omonullayeva musiqasi, P.Mo'min she'ri.	Ko'rsatish, tushuntirib berish, o'yin usuli.	Bolalarni sof owozda kuyashga o'rgatish, tovush yo'nalishini his etish.
5. «Qadim Turon». N.Norxo'jayev musiqasi, P.Mo'min she'ri. «Etikchar». D. Omonullayeva musiqasi, Q.Ota she'ri.	Ijro, suhbat.	Qo'shiq mazmuni va ohangi bilan tanishtirish.
6. Musiqiy-ritmik harakatlar: raqs elementlariidan qo'l harakati. «Yallama yorim», o'zbek xalq kuyi.	Ko'rsatish, tushuntirish, rag'batlantirish.	Raqs harakatlarini ko'rsatib berish.
7. O'yin: «Tutib ol». I. Gaydn musiqasi.	Tushuntirish, rag'batlantirish, ogohlantirish.	Musiqa ritmiga mos harakatlanish malakalarini o'stirish. «Tutib ol» so'zidan so'ng yugurishga o'rgatish.

### MASHG'ULOTNING BORISHI

«Marsh» chalinati, bolalar shaxdam qadamlar bilan zalga kirib kelib, doira shaklini hosil qilishadi. (Musiqo rahbari bolalar bilan salomlashadi).

Musiqo rahbari: — Bolalar, hozir qo'limizni belga qo'yib doirani buzmagan holda oyoq uchida yuguramiz.

(Bolalar yugurishadi).

Musiqo rahbari: — Endi hozirgi chaladigan musiqamning I qismiga yarim o'tirib-turgan holda doira bo'ylab yuramiz, keyin yarim o'tirib-turish mashqini bajaramiz. Yarim o'tirib-turib yurish qanday amalga oshiriladi?

(Bolalar ko'rsatishadi).

Musiqo rahbari: — Barakalla, to'g'ri, II qismiga oyoq uchida turish mashqini bajaramiz. (Ijro).

Musiqo rahbari: — Judayam yaxshi, endi «Marsh» ostida joyimizga kelib o'tiramiz.

Bolalar hozir sizlarga kuy ijro etib beraman. Diqqat bilan tinglanglar, keyin bu kuyga qanday harakatlarni bajarsa bo'ladi? (Ijro). «Qari navo».

(Bolalar turli xil javoblar berishadi). Dutor cholg'usida mana bunday jo'r bo'lib turamiz.

Musiqo rahbari: — Bolalar, bugun biz siz bilan endi «Qadim Turon» qo'shig'ini takrorlaymiz. (Ijro).

Musiqo rahbari: — Endi «Etikcham» qo'shig'ini eshititing. Nima haqida ekan? (Bolalar javob berishadi).

Musiqo rahbari qo'shiq so'zlarini aytib, jumalarga bo'lib, ohangini o'rgatadi.

O'zi aytib berganidan so'ng, bolalarga I- bandidan boshlab o'rgatadi.

Bolalar qo'shiqning I- bandini aytib bo'lishgandan so'ng hammalari o'rinalidan turib doira hosil qiladilar.

Musiqo rahbari: — Hammamiz kel yonimga, yo'q-yo'q harakatini bajaramiz. (Ijro I qismiga). Endi koptokni yuqoriga otamiz (II qism). Hozir «Tutib ol!» o'yinini o'ynaymiz.

Yaxshi, barakalla, bugun ham juda yaxshi harakat qildingiz. Hammangizga rahmat, sog'-salomat bo'linglar, mashg'ulot tamom, xayr.

— ener

### MARSH TEODORO

Tempo di marcia

J.Bize musiqasi

### PRUJINA MASHQI

Allegro moderato

Sonya Abramova  
musiqası

CHORI CHAMBAR

Allegro

N.Norxo'jayev qayta ishlagan

Cho - ri cham-bar, bi - ri am - bar, O - na qiz qay - da, o - la bu - la tog - di.  
Tog - man - zuv - man, zan - jir huf - qa, ku - mish bal - qa, O - na - bosh - yon - bosh gul - dir - gap.

QO'NG'IROQCHA

(Ovoz sozlash uchun)

Allegro

D.Omonullayeva musiqasi,  
Po'lat Mo'min she'ri

rit.  
Qo'n-g'i - roq - cha, ja - rang - la, ja - rang - la.  
Bo - la - lar - ni, ho - la - lar - ni shod ay - la, shod ay - la.

QADIM TURON

Allegro moderato

Uch Hu - mo qush par - vo - zi xush Ay - tay\_ chin - dan\_ bax - tim  
sen-dan. Keng Tur-kis-ton Men - ga ma - kon El qi - dr - don O'z - be - kis - ton  
§  
Qu - dim - Tu - ron

Samosi sof, chaqnar oftob,  
Bag'ri kengdir, do'sti ko'pdır.  
Aytay chindan, baxtim sendan.  
Bor bo'l, humo, bor bo'l, humo.

NEVARALAR QO'SHIG'I

*N.Norxo'jayev musiqasi,  
Safar Barnoyev she'ri*

**Allegretto**

Bo-g'im bor, gul- zo-rim bor  
Bosh bog'-bo-ni bo-bom-lar. Shi-rin so'z-li, be - o - zor Meh- ri - bo-nim  
mo-mom-lar. Ne - va - na, e - va - ra, che - va - ra - miz.  
Biz - lar tuy - ning che - va - ri - miz, che - va - ri - miz.

Niyatimiz pok, nurli,  
Shundan bizlar g'ururli.

Bobo, momolar bilan  
Yashash qanday sururli.

ARG'IMCHOQ

*D.Omonullayeva musiqasi,  
P.Mo'min she'ri*

**Moderato**

Xa - yuv, xa - yuv.  
Xa - yuv, xa - yuv.  
Ar - gim - choq - da uch - dik, Va ya - na, va ya - na tez - roq, tez - roq  
A - shu - la - lar ayt - dik.  
uch - dik ham - ma - miz, ham - ma - miz xur - sand bo' - lib kul - dik.

## TAYYORLOV GURUHI (6–7 YOSHLI) BOLALARI BILAN MUSIQA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Olti yoshli bolalar tarbiyachilar topshiradigan vazifalarning mohiyatini tushunadilar, ko'satmalarni mustaqil bajaradilar. O'z xatti-harakatini boshqarish ko'nikmasi bolaning diqqatiga, xotirasiga, fikrlashiga ta'sir etadi.

Bolalarning turli xarakterdagi musiqalarga nisbatan faol qiziqishi va emotsiyal ta'sirchanlik o'sadi, musiqiy idroki rivojlanadi, qo'shiqning qaysi qo'shiq ekanini kirish qismi yoki umumiy ohangidan bilib olishni o'rganadilar. Musiqa taassurotlarini boyitish, musiqiy tovushlar baland-pastligi, ritm, tembri, dinamikasini ajrata olish qobiliyati rivojlanadi, turli shakllar, janrlar (marsh, raqs, alla) haqida tushunchaga ega bo'ladir. Tovushni to'g'ri hosil qilish, sof intonatsiya, musiqa ostida ritmik harakatlarning ifodaliligi, raqs va o'yinlarda obrazli harakatlar, bolalar cholg'u asboblarining tovush tembrlerini ajrata bilish, ijro etish kabi ijrochilik malakalari shakllanadi.

Yetti yoshli bolalarning harakatlari birmuncha aniq va uyg'unlashgan bo'ladi. Kuch, tezlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi sifatlar ortadi. Xayolda «o'yinab o'tirish» ko'nikmasi paydo bo'ladi. Ayniqa o'g'il bolalarda mustaqil harakat qilish faoliyati ortadi. Bu yoshdagi bolalar o'z harakatlарини baholay oladilar. Kattalar bilan shaxsiy muloqot qilish va ishonchli munosabatlarga intilish kuchayadi. Maktabga tayyorlov guruhibda bolalar turli faoliyatlarini bajaradilar, mashg'ulotlar jarayonida aniq umumlashgan bilim va ko'nikmaga ega bo'ladir. Eshitish qobiliyati takomillashadi.

She'mi tinglash ko'nikmasi shakllanadi, musiqaga emotsiyal qiziqishi ortadi, musiqa tinglash va musiqani ritmik his etish ko'nikmasi mustahkamianadi. 6–7 yoshda bolalar kuyni anglagan holda qo'shiq kuylashadi va bolalar musiqa cholg'u asboblarida ohanglarni eslab ijro etadilar.

Bu guruhibda musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishdan maqsad va ko'zda tutilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- musiqiy janrlarni ajrata bilishga, musiqa mazmunini tushunishga o'rgatish;
- musiqaning kirish qismi, boshlanishi, yakuni, naqarot, tempi, dinamikasini farqlashga o'rgatish;
- qo'shiqni tabiiy, engil, jarangdor, yoqimli ovozda kuylash. Musiqa jumllalari orasida yelkalarni ko'tarmasdan nafas olish, so'zlarni aniq, ravon talaffuz qilish, qo'shiqni barobar boshlab, barobar tugatishga o'rgatish;
- musiqaning turlicha xarakteri, dinamikasi va registrlariga mos ifodali hamda erkin harakat qilishga o'rgatish;
- bolalarni tantanavor, bayramona ritmda, shiddatli va kichik qadamda yurish kabi harakatlarni musiqa xarakteriga mos rayishda bajarishga o'rgatish;

– bolalarning cholg'ularda ijro etilgan kuy ohangiga qiziqishini kuchaytirish, turli cholg'ularda chalishning eng sodda usullarini o'rgatish. Ansambl va orkestrda kuyni aniq ifodalab ijro etish.

Tayyorlov guruhi uchun musiqa mashg'ulotining davomiyligi 30–35 daqiqadan iborat bo'lgani ma'qul. Ya'ni:

- musiqiy-ritmik harakatlar – 7 daqiqani;
- tinglash – 4 daqiqani;
- cholg'ularda ijro – 4 daqiqani;
- musiqa savodi – 3 daqiqani;
- qo'shiq kuylash – 10 daqiqani.
- o'yin – 6 daqiqani tashkil etishi kerak.

### Tayyorlov guruhi uchun musiqa mashg'ulotlarining taxminiy rejasi

Mashg'ulot mazmuni	Ushub va usullar	Mashg'ulotning maqsad va vazifalari
I. Musiqiy-ritmik harakatlar: 1. «Marsh». M. Blanter musiqasi. 2. «Yugurish». S. Abramova musiqasi. 3. Yonlama galop. «Masxarabozlar». D. Kabalevskiy musiqasi. 4. «Argonni tort», «Andijon polkasi». O'zbek xalq kuyi.	Ko'rsatish, tushuntirish, ogoohlantirish, rag'batlantirish.	Marshda ritmi his etib yurish. Yonlama galop harakatini mustahkamlash. «Argonni tort» o'yini harakatini aniq ko'rsatishga o'rgatish.
II. Tinglash. «Masxarabozlar». D. Kabalevskiy musiqasi.	Ijro, ko'rgazmali suhbat.	Asar kayfiyati va mazmuni bilan tanishtirish.
III. Milliy cholg'ularda jo'r bo'lish. Dutor, doira «Andijon polkasi».	Ko'rsatish, tushuntirish.	Kuchli hissani his etib kuya jo'r bo'lish.
IV. Musiqa savodi (ovozi, sozlash). «Botalar va g'ozlar». J. Najmiddinov musiqasi, M. Qo'shoqov she'ri.	Ijro, ko'rsatish, tushuntirish, o'yin usuli.	Bolalarmi sof ovozda kuylatish, tovush yo'nalishini qo'l harakati bilan ko'rsatish.
V. Kuylash: «Neveralar qo'shig'i». I. «Aziz bo'ston — O'zbekiston». D. Omonullayeva musiqasi, M. Mirzo she'ri.	Ijro, ko'rgazmali suhbat.	Qo'shiqning 2- bandini o'rgatish. «Uzum» qo'shig'ining so'z va ohangini o'rgatish.
VI. O'yin: «Kim chaqqon?». «Yugurish». S. Abramova musiqasi.	Ko'rsatish, tushuntirish, ogoohlantirish, rag'batlantirish.	Juft bo'lib raqsga tushishga o'rgatish. Ritm hissini rivojlantirish. O'yin qoidasiga roya qilish. Diqqatni tarkib toptirish.

## MASHG'ULOTNING BORISHI

Bolalar: — Assalomu alaykum!

Musiqa rahbari: — Vaalaykum assalom! Hozir musiqaga mos yuramiz va yuguramiz («Marsh» kuyiga yurib, «Yugurish» kuyiga mos ravishda oyoq uchida yengil yuguradilar). Endi yonlama galopni (og'izda kuylab, ko'rsatadi). Musiqa jo'rлигида harakatni bajaradilar. Arqonni o'zingizga tortasiz (harakat ko'rsatib beriladi), marsh ostida joyingizga kelib o'tirasiz. Bolalar harakatni bajaradilar.

Bolalar, hozir bir kuyni ijro etaman, kayfiyatini aniqlang. («Masxarabozlar» kuyi ijro etiladi).

Bolalar: — Bu kuy quvnoq, sho'x ekan.

Musiqa rahbari: — To'g'ri, quvnoq kayfiyat, sho'x ohangga ega. Bu kuya qanday harakat qilsa bo'ladi?

Bolalar: — Bu kuya o'yinasa, sakrasa bo'ladi.

Musiqa rahbari: — To'g'ri, shuning uchun ham bu kuyning nomi «Masxarabozlar». Masxarabozlar kimlar, ularni qayerda ko'rgansiz?

Bolalar: — Masxarabozlarni sirkda, xalq sayillarida ko'rganmiz. Ular odamlarni kuldiradilar.

Musiqa rahbari: — To'g'ri, mana ular (rasm yoki o'yinchoqlari ko'rsatiladi). Bolalar, kuyni yana bir marotaba tinglang. (Ijro). Endi yana qo'shiq kuylab beraman. Uning nima haqida ekanligini aytib berasiz. (Ijro).

Bolalar: — G'ozlar va bolalar haqida.

Musiqa rahbari: — To'g'ri. Bolalar, kuyning yo'nali shiga qarab qo'llaringiz bilan harakatni ko'rsatasiz («g'oq-g'oq» so'zlariga qo'l bilan ko'rsatib, sof ovozda aniq kuylab beradilar).

Musiqa rahbari: — Hozir qo'shig'imizni eshitasiz. «Bolalar va g'ozlar» (Bolalar qo'shiqning kirish qismidan nomini topib aytadilar). Endi shu qo'shiq kuyiga ovoz sozlaymiz.

Musiqa rahbari: — Endi sizlarga 2- qo'shiqni ijro etib beraman. Uning nomi «Aziz bo'ston — O'zbekiston». Bu qo'shiqning musiqasini kompozitor Dilorom Omonullayeva, she'rini esa shoir Mirpo'lat Mirzo yozgan. O'zbekiston nima uchun bo'stonga qiyoslanadi?

Bolalar: — Chunki O'zbekistonda bog'lar, dalar ko'p.

Musiqa rahbari: — O'zbekiston kimning Vatan? Buyuk bobolarimiz kimlar?

Bolalar: — O'zbekiston — bizning Vatanimiz, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Amir Temur, Navoiy, Ulug'bek, Boburlar bizlarning bobolarimizdir.

Musiqa rahbari: — Endi shu qo'shiqni dildan kuylashni o'rganamiz. (Ijro).

Man, yangi qo'shiqni ham ijro etdik. Bu qo'shiq sizlarga yoqdimi?

Musiqa rahbari qo'shiq so'zlarini ohang ritmida o'rgatadi, o'ng qo'lida kuyini chalib, chap qo'lida dirijorlik qiladi.

Bolalar qo'shiqni naqarotidan boshlab kuylaydilar.

Musiqa rahbari: — Bolalar, o'rnингиздан marsh ostida turib, juftingiz bilan yonmayon turasiz. Raqsimizni boshlaysiz. Bugun yangi harakatni bajaramiz. Uning nomi «Arqonni tort» («Andijon polkasi») kuyi (qizlar qo'llarini yonga, o'ngga, chapga qarab silkitadilar).

Musiqa rahbari: — Doira shaklini saqlagan holda «Kim chaqqon?» o'yinini o'ynaymiz («Yugurish». S.Abramova musiqasi).

O'yin sharti: Bolalar doira hosil qilib chapak chalib turadilar. Bitta bola doira ichida (qo'lida bubencha yoki dastro'mol) musiqaga mos harakat bajaradi (marsh, raqs, yugurish). Musiqa to'xtashi bilan bola ham to'xtaydi. Doiradagi 2 ta bola doira tashqarisiga chiqib, qarama-qarshi tomonga yugurishi va o'z joyiga birinchi bo'lib yetib kelishi kerak.

Musiqaqaga mos ritmi his etib harakatlanish talab etiladi.

### MARSH

*M.Blanter musiqasi*

YUGURISH

*S.Abramova musiqasi*

**Allegretto**

MASXARABOZLAR

*D.Kabalevskiy musiqasi*

**Allegro**

**ANDIJON POLKASI**

*O'zbek xalq kuyi*

*Habibullo Rahimov  
fortepiano uchun moslashtirgan*

*Allegro*

**BOLALAR VA G'ÖZLAR**

*J.Najmiddinov musiqasi,  
M.Qo'shoqov she'ri*

O'rtacha tez

Bolalar: — G'ozlar, bizga aytингиз  
G'oq, g'oq, g'oq.  
Nega oppoq patingiz  
G'oq, g'oq, g'oq.

G'ozlar: — Chunki suvlar to'lqini  
G'oq, g'oq, g'oq.  
Bizni yuvar har kuni  
G'oq, g'oq, g'oq.

AZIZ BO'STON – O'ZBEKISTON

D.Omonullayeva musiqasi,  
Mirpo'lat Mirzo she'ri

**X** Quvnoq

*f*

*p*

Bu dun-yo - da cha-man - lar ko'p.

Bu dun-yo - da va-tan - lar ko'p. Bar-cha-si-da yash - mar gul -lar.

Bar-cha-si-da yay - tar dil - lar

Me-ning u-chun a - ziz bo's-ton, O'z-be - kis-ton. O'z-be - kis-ton

Me-ning u-chun a - ziz bo's-ton, O'z - be-kis - ton, O'z-be - kis-ton

Sahrolar gul ochar senda,  
Samolar nur sochar senda.  
Yulduzlaring so'nmasin hech,  
Bag'riga g'am to'lmasin hech.

**Qovoqvoy:** — Bolajonlar, men-chi juda ham ko'p topishmoqlarni yoddan bilaman, sizlarga aytib beraymi? Javoblarini topasizlarmi?

Boyning o'g'li boysari, soqollari sap-sari. (*Sabz*).

Qizil-qizil do'ndiqcha, marjon to'la sandiqcha. (*Anor*).

Dum-dumaloq jajji oy, chaqib yesang g'ij-g'ij moy. (*Yong'og*).

Davraga sabzi, pomidor, sholg'om, oshqovoq, kartoshka kabi sabzavotlar roldagi bolalar chiqishadi va o'zlarining xususiyatlari haqida so'zlab beradilar.

**Kartoshka:** — Goh ugrayman to'rvada, goh pishaman sho'rvada, mastavada qaynayman, qovurmada yayrayman.

Raqs va qo'shiq. «Hosil qo'shig'i».

**Boshlovchi:** — Yur, Qovoqjon, men seni bog'imizga olib boraman, xohlasang mevalardan terib olasan.

(*Mevalar roldagi bolalar o'rtaqa chiqishadi*).

**Uzum:**

— Döñalarim marjoncha,  
Bir boshim naqd bir jomcha.  
Quritsangiz mayizman,  
Dasturxonga fayzman.

**Pista:**

— Quvnoq, shodon pistaman,  
Askiyaga ustaman.  
Jilmayganim-jilmaygan,  
Kimga yoqar to'mtaygan.

**Tut:**

— Meni derlar qora tut,  
Shoshmay bitta-bitta yut.  
Solsang agar chinniga,  
Aylanaman shinniga.

**Anor:**

— Har donacham bir askar,  
Bir qal'ada bir lashkar.  
Yotar ular panada,  
Oq pardali xonada.

**Boshlovchi:** — Bolajonlar, nonvoylar non yopadilar. Ana o'sha nonlarning dasturxonga to'kilgan ushoqlarini nima qilamiz?

**Bolalar:** — Jo'jalar va tovuqlarga beramiz.

«Jo'jalar raqs» D. Omonullayeva musiqasi, P. Mo'min she'ri.

Ommaviy raqs: «Lazgi», (*Guruhdagi barcha bolalar erkin raqsga tushadilar*).

**MEHRJON BAYRAMI ERTALIGI**

(*Katta va tayyorlov guruhlari uchun*)

Zal bayramona bezatilgan. Katta guruh bolalari musiqa ostida qo'llilarida oltin bargchalar bilan kirib keladilar va tayyorlov guruhiga qarama-qarshi bo'lib turadilar.

**Boshlovchi:** — Assalomu alaykum, Mehrjon, ya'ni hosil bayramiga tashrif buyurgan aziz mehmonlar hamda shirindan-shakar bolajonlar, hammangizni bayram bilan tabriklayman!

**Bolalar:** — Rahmat!

**Boshlovchi:**

— O'zbegim so'zi avval  
Assalomdan boshlangay.  
Do'stlarga qilib ta'zim  
Ehtiromdan boshlangay,  
Ko'ksimdadir qo'llarim.

**Hamma:** — Assalomu alaykum!

Qo'shiq: «Kuz». S. Abramova musiqasi. N. Ro'zimuhamedov she'ri.

Raqs: «Qari navo». O'zbek xalq kuyi.

She'rlar

\* \* \*

Xush kelibsiz, mehmonlar,  
Bog'chamizga marhabo.  
Keldi Mehrjon bayrami,  
Shodlik bo'lsin doimo.

\* \* \*

Keldi oltin kuz,  
Mevalar pishdi.  
Daraxtlar shoxi  
Egilib tushdi.

\* \* \*

Bizning polizda  
Qovun-tarvuz ko'p.  
Yetildi yozda  
So'yib yedik xo'p.

**Boshlovchi:** — Bolajonlar, hozir davramizda kim yetishmayapti?

**Bolalar:** — Kuzoy.

**Boshlovchi:** — Juda to'g'ri. Bolajonlar, sizlar Kuzoyni bayramga taklif qilganmisizlar?

**Bolalar:** — Ha!

*Musiqo sadolari ostida Kuzoy kirib keladi.*

**Kuzoy:**

— Mana menman oltin kuz,  
Xirmonda hosil mo'l-mo'l.  
Terib keldim siz uchun  
Turli mevalar bugun.

**Bola:**

— Salom senga, «Kuzoyjon»,  
Birgadirsan qadrdon.  
Xush kelding bog'chamizga,  
Barchamiz quvnoq-shodon.

**Kuzoy:** — Bolajonlar! Men hammangizni ajoyib bayram, qo'yni-qo'njiga hosil liq  
to'lgan Mehrjon bayrami bilan tabrikayman.

**Boshlovchi:**

— Aziz Kuzoy, marhamat, mana bu yerga o'tirib, dam oling. Bolajonlar sizni olqishlab  
turli she'rilar, qo'shiqlar ayitib, raqslarga tushadilar.

Raqs: «Bargchalar raqsi».

**Boshlovchi:**

— O'lkamizning husni, ochil paxtajon,  
Sendan baxtimiz, kular har qachon.  
Ko'klardan oshsin biz uyan xirmon  
Bizlarga g'amxo'r Yurtboshi har on.

**Bola:** — Ochil mehrla, terib olaylik,  
Keng jahon bo'ylab dovrug' solaylik.

Qo'shiq. «Paxtaoq», F.Nazarov musiqasi, T.Ilhomov so'zi.  
Raqs: «Paxta raqsi», S.Abramova musiqasi.

**Boshlovchi:** — Dehqon bobo, davramizga xush kelibsiz. Hosil yig'imi bilan  
charchamadingizmi?

**Dehqon bobo:** — Yo'g'-e. Shunday aqlli, mehnatkash bolalar mena yordam bersa-  
yu, men charchaymanmi?

Qo'shiq. «Hosil yig'imi», A. Flipenko musiqasi, T.Volginov so'zi.

**Boshlovchi:** — Qaranglar, bolajonlar! Dehqon bobo bizga turli-tuman mevalar,  
sabzavotlar olib kelibdi.

*Boshlariga sabzavot tasvirlangan atributlar taqqan bolalar yarim doira bo'lib turadilar.*

**Sabzi:**

— Meni sabzi deydilar,  
Oshga solib yeydilar.  
Har narsaga men oziq,  
Yer tagida oltin qoziq.

**Lavlagi:**

— Men quyonga o'xshayman,

Polizlarda yashayman.

Nomim sholg'om, bilib qo'y,  
Ovgatga solib yeb qo'y.

*Bolalar «Kim ko'proq sabzavot teradi?» attraksion o'yinini o'ynaydilar.*

Raqs: «Olma pishganda keling». O'zbek xalq kuyi.

**Kuzoy:** — Bu kichkintoylar judayam aqlli, sho'x va odobli bolalar ekan. Bolajonlar,  
maylimi sizlarga topishmoq aytasam. Kim topishmoqlarga to'g'ri javob bersa, savatchamdag  
mevalardan beraman.

**Topishmoqlar:**

Qizil-qizil do'ndiqcha, marjon to'la sandiqcha. (Anor).

Dum-dumaloq jajji oy, chaqib yesang g'ij-g'ij moy. (Yong'oq).

Ko'ylagi qavat-qavat, tugmalari yo'q faqat. (Karam).

Pak-pakana bo'yи bor, yetti qavat to'ni bor. (Piyoz).

**Boshlovchi:** — Bolajonlar, endi Kuzoy bilan xayrflashishimiz kerak. Chunki uni boshqa  
bog'chadagi bolalar ham intizorlik bilan kutishyapti. To'g'rimi, Kuzoy?

**Kuzoy:** — Juda to'g'ri. Bolajonlar, qo'shiq va rasmlaringiz, she'rлaringiz uchun katta  
rahmat. Yanagi bayramlarda ko'rishguncha xayr.

*Kuzoy chiqib ketadi.*

**Boshlovchi:** — Endi, bolajonlar, hammani raqsga taklif qilaman. (Ijro).

**Boshlovchi:** — Aziz bolajonlar, hurmatli mehmonlar, mana bayramimiz ham oxirlab  
goldi. Hammangizga sihat-salomatlilik, quvnoq kayfiyat tilaymiz!

*Bolalar musiqo sadolari ostida zaldan chiqib ketadilar.*

## NAVRO'ZI OLAM BAYRAMI ERTALIGI

*(Tayyorlov guruh uchun)*

1. Bayramga chorlov kuyi yangraydi. Maydonga karnay ko'targan 6 ta bola kirib  
keladi.

2. «Karnay taronalari». Karnaychilar karnaylarini chaladilar.

3. O'g'il bolalar «O'zbegim yigitlari» musiqasi ostida maydonga kirib keladilar.  
«Farg'onacha» raqnsini ijo etadilar. Raqs davomida she'r o'qiladi (kadr ortidan).

Dunyoning eng teran yulduzi yurtim,  
Hurlikning porlagan yulduzi yurtim,  
G'ayrating ulug'dir, orzularing sha'n,  
Navro'zing muborak, onajon Vatan!

4. «Turkiston avlodlari». A.Nazarov musiqasi, «Jonim Vatan» qo'shig'i.

I. (Bu qo'shiq ostida bayroq ko'targan sportchilar maydonga kirib keladilar).

II. Qo'shiqning 3- bandida karatechi bolalar kirib keladilar va o'z mahoratlarini  
namoyish etadilar. Qo'shiq yakunida hamma belgilangan joyiga o'tirib oladi.

5. Maydonga boshlovchi qizlar kirib keladilar:

1- **boshlovchi qiz:** — Dugonajonlar, nima bo'ldi, tinchlikmi o'zi?

2- **boshlovchi qiz:** — Elimizga Navro'zi olam keldi. Hali xabaringiz yo'qmi?

3- **boshlovchi qiz:** — Voy, bo'lmasa o'rtoqjonlarimizni chaqirib boychechak topaylik. Hammamiz bir bo'lib xonardonlarga kirib olgan qishni haydaylik (*ketishadi*).

*Qizlarning so'zlariga Ayamajiz daraxtlar orgasidan quloq solib turadi.*

**Ayamajiz:** — Xo-o-o! Hali boychechak termoqchimisizlar? Boychechakni topib bo'psiz. Men hozir Sariq sumalak, Botir-Bo'ron, Ahmon-Dahmon do'stlarimni shunday ishga solayki, endi nish urib chiqayotgan maysalar-u, ko'katlar unmay qo'yisin (*chiqib ketadi*). «Uyg'onish» musiqasi ostida boychechaklar o'sa boshlaydilar. «Bo'ron» musiqasi.

**Sahna ortidan:**

— Birdan osmon qorayib ketdi,

Bosdi paxmoq bulut galasi.

Ufqlarda chaqmoq yilt etdi,

Sharros quydi bahor jalasi.

(«Boychechaklar» qattiq tebranadilar, «Bo'ron» boychechaklar orasida yugurib yu...).

**Bo'ron roldagi bola:**

— Hukmmimi o'tkazaman,

Zahmatlar yetkazaman!

**Boychechaklar roldagi bolalar:**

— Yo'q, yo'q, Bo'ron, shoshmagin,

Ko'p haddingdan oshmagin.

Hech qachon yengolmaysan.

Quyosh bobo, quyosh bobo (*chaqirishadi*).

**Quyosh bobo roldagi bola:**

— Labbay, maysajonlarim,

Go'zal boychechaklarim.

**Boychechaklar:** — Bo'ron bizni qo'rqtidi!

**Quyosh bobo:**

— Ey sho'x o'g'lon, Bo'ronsan,

Ozor berma bog'larga.

Agarda sen mard bo'lsang,

Kuching ko'rsat tog'larda!

3- **boshlovchi qiz:** — Bolalar, kelinglar, Ayamajizni tandir ichiga qamab qo'yamiz.

Shunda kunlar isib, yurda mo'l-ko'lchilik bo'ladi (*ushlab tandirga qamaydilar*). Quyosh bobo roldagi bola: — Rahmat sizga qarog'larim, endi men nurlarimni borliqqa taratib, maysa-giyohlarimni undiraman!

«Uyg'onish». Boychechak, Nurchalar, Quyoshlar raqsi.

**Boshlovchi roldagi bola:** — Rahmat sizga, Quyosh bobo. Nurlaringizdan boychechaklar uyg'ondi.

2- **boshlovchi qiz:** — Boychechak chiqibdi,

Bugun Navro'z ekan.

Hamma bir-biriga

Jigar so'z ekan.

Olam ham barobar

Kecha-kunduz ekan.

**Hamma:**

— Boychechak chiqibdi,

Bugun Navro'z ekan.

3- **boshlovchi qiz:** — Salom, Navro'z, Gul navro'z.

Gulday kulib kel, Navro'z.

Endi bizning diyorda

Bir umrga qol, Navro'z.

1- **boshlovchi qiz:** — Navro'z kelsa yasharar

Yer-u ko'k dala, bo'ston.

Chaman bilan burkanar,

Bo'lar yana guliston.

Boshlovchi tarbiyachi hammani bayram bilan tabriklaydi. Navro'z, sumalak, urfatlar haqida so'zlaydi. Tayyorlov guruhi bolalari she'rlar aytishadi. «Yomg'ir yog'aloq» qo'shig'i va raqsini ijro etadilar.

**Boshlovchi qizlar:**

— Eng sevimli xush ayyom,

Bugun Navro'zi olamdir.

Ko'ngillarni yayratgan,

Bu sharqona bayramdir.

Navro'z go'zal, ulug' kun,

Quvonchlarga to'liq kun.

Yayrang do'star, kun-u tun

O'zbekiston mustaqil!

Yashnamoqda gul diyor,

Bo'lsin senga zafar yor,

Keling, aytaylik alyor!

**Hamma:**

— O'zbekiston mustaqil!

Tayyorlov guruhi «Oftob chiqdi olamga» qo'shig'ini ijro etadi.

(*Tadbir shu bilan tugaydi*).

3 gans

14012c. LT.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Maktabgacha ta'lif muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining maqsad hamda vazifalari.....	4
Musiqa rahbari va unga qo'yilgan zamonaviy talablar.....	6
Bolalar bog'chalarida musiqa mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilishi.....	7
Bolalar bog'chalarida qo'shiq kuylashni o'rgatishga doir metodik tavsiyalar.....	9
Musiqa tinglashga doir metodik tavsiyalar.....	23
Musiqiyy-ritmik harakatlarni bajarishga doir metodik tavsiyalar.....	35
Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishga doir metodik tavsiyalar.....	46
Kichik guruh (2 yoshli) bolalari bilan musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishga doir metodik tavsiyalar.....	53
Kichik guruh (3 yoshli) bolalari bilan musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishga doir metodik tavsiyalar.....	54
O'rtalik guruh (4 yoshli) bolalari bilan musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishga doir metodik tavsiyalar.....	61
Mashg'ulotning borishi.....	63
Katta guruh (5 yoshli) bolalari bilan musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishga doir metodik tavsiyalar.....	70
Mashg'ulotning borishi.....	72
Tayyorlov guruhi (6-7 yoshli) bolalari bilan musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishga doir metodik tavsiyalar.....	78
Mashg'ulotning borishi.....	80
Maktabgacha ta'lif muassasalarida bayram ertaliklari.....	88
Kichik va o'rtalik guruhlarda bayram ertaliklari.....	88
Katta va tayyorlov guruhlarda bayram ertaliklari.....	89
Bayram tadbirlarida foydalanimish uchun qo'shimcha materiallar.....	89
Mehrjon bayrami ertaligi (kichik va o'rtalik guruhlari uchun).....	89
Mehrjon bayrami ertaligi (katta va tayyorlov guruhlari uchun).....	91
Navro'zi olam bayrami ertaligi (tayyorlov guruhi uchun).....	93

Gulnora Matbulalovna Sharipova, Shoira Abduzabarovna Yakubova

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASI

*Kash-kunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

*Muharrir Abdurahmon Akbar*

*Rassom Shuhrat Odilov*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko*

*Musahhit Mahmuda Usmonova*

*Kompyuterda sahifalovchi Gulbayra Yeraliyeva*